

Xalq so‘zi

O‘zbekiston – kelajagi buyuk davlat

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan ● WWW.XS.UZ ● E-mail: Info@xs.uz ● 2026-yil 13-oktyabr, № 212-213 (9383-9384) Seshanba

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

«O‘Z G‘OYANG! O‘Z SARMOYANG! O‘Z KELAJANING! YANGI O‘ZBEKISTON, YANGI TOSHKENT – O‘ZIMIZNIKI!»

Davlatimiz rahbari investor va tadbirkorlarni ushbu shior atrofida birlashishga chaqirdi





Taraqqiyot ildamlashgan yurtda urbanizatsiya jarayonlari tezlashib, mavjud shaharlar megapolisga aylansa, markaziy shaharlar o‘ziga tutash hududlarda yangi kentlar vujudga kelishiga turtki bo‘ladi. Bugun O‘zbekistonda ana shunday shiddatli bunyodkorlik ruhi hukmron. Davlatimiz rahbarining g‘oyasi va tashabbusi bilan qurilishi boshlangan Yangi Toshkent shahri bunga yorqin misoldir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 12-oktyabr kuni Yangi Toshkentga tashrif buyurib, bunyod etilgan inshootlarni ishga tushirish va yangi loyihalarning qurilishini boshlash marosimida qatnashdi.

Xavfsiz va “yashil” shahar konsepsiyasi asosida barpo etilayotgan Yangi Toshkent mamlakatimiz tarixidagi eng yirik shaharsozlik loyihasi hisoblanadi. Uning birinchi bosqichida zamonaviy texnologik yechimlarga asoslangan 50 milliard dollarlik loyihalar amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan.

Zamonaviy shaharda “Yashil qurilish standartlari” asosida 150 million kvadrat metr turar va noturarjoy maydonlari, shuningdek, 2 ming gektar yashil maydon va 500 gektar istirohat bog‘lari barpo qilinadi. O‘tgan qisqa davrda Yangi Toshkentda 2 milliard dollarlik qurilish va bunyodkorlik ishlar bajarilib, ko‘rkam turarjoylar, universitetlar, kutubxona va amfiteatr qurildi.

Marosimda “Sharq bahori” turarjoy majmuasining birinchi bosqichi, yo‘l va infratuzilma obyektlari, “Yangi Toshkent” 1-son nimstansiyasi, trigeneratsiya stansiyasi, Savdo-sanoat palatasi binosi, “Sohil bog‘i” istirohat bog‘i hamda 2 ming o‘rinli umumta’lim maktabi singari umumiy qiymati 1 milliard dollarga teng yettita obyekt ishga tushirildi.

Turkiyaning “MIMSAN” kompaniyasi ishtirokida 73 million dollar investitsiya hisobiga barpo etilgan trigeneratsiya stansiyasi 100 ming xonadonni markazlashgan isitish va sovitish, ayni paytda elektr energiyasi bilan ta’minlash imkonini beradi. Xitoyning “Haocheng Industry Group Limited” kompaniyasi bilan hamkorlikda qurilgan nimstansiya va yuqori kuchlanishli elektr tarmoqlari ham yirik loyihalardan yana biri bo‘lib, uning qiymati 95 million dollarni tashkil etadi.

Shuningdek, 18 kilometr avtomobil yo‘li qurildi, 13 kilometr kanalizatsiya va 4,5 kilometr ichimlik suv tarmoqlari tortildi. Qirg‘oq bo‘ylab 10 kilometrlik “Sohil bog‘i”da piyodalar va velosiped yo‘laklari tashkil qilindi. “Sharq bahori” turarjoy majmuasining ilk bosqichida qariyb 7 mingta xonadon qurildi.

Marosimda Xitoy, Turkiya, Birlashgan Arab Amirliklari va boshqa xorijlik hamkorlar ishtirokida umumiy qiymati 2,5 milliard dollarlik yana o‘nta yirik loyiha qurilishiga start berildi.

Yuqori texnologik mahsulotlar va yarimo‘tkazgichlar ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan “Deep Tech park” sanoat hududi – shulardan biri. Uni barpo etish uchun 320 million dollar yo‘naltirilib, umumiy qiymati 1,7 milliard dollarlik loyihalar joylashtiriladi.

Yangi Toshkent shahri qurilishi boshqa bunyodkorliklardan tubdan farq qiladi. Bunda asosiy e’tibor inson manfaatiga, ekologik musaffolik va energetik barqarorlikka qaratilgan. Misol uchun, Finlyandiyaning “MariMatic” kompaniyasi ishtirokida amalga oshiriladigan loyihada chiqindilarni to‘plash va ulardan “yashil” elektr energiyasini olish, ko‘p kvartirali uylar tomiga umumiy quvvati 20 megavatt bo‘lgan fotoelektr tizimlarini o‘rnatish ko‘zda tutilgan.

Gigant loyihada atmosfera havosiga zararli tashlamalar chiqarilishini keskin kamaytirish maqsadida transport infratuzilmasi uchun innovatsion yechim qilinmoqda. Ya’ni metro bekatlari bilan tutashgan yer osti avtoturargohi barpo etiladi. Yangi Toshkentni poytaxt bilan bog‘lash uchun Temur Malik ko‘chasi va “4R12” avtomobil yo‘li o‘rtasida ko‘prik, yo‘lo‘tkazgich va 10 kilometr yo‘l quriladi.

(Davomi 2-betda).

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati suratlari.

O‘ZBEKISTON VA TURKMANISTON YETAKCHILARI TELEFON ORQALI MULOQOT QILDILAR

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Turkman xalqining milliy yetakchisi, Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedov bilan telefon orqali muloqot qildi.

Prezidentimiz Gurbanguli Berdimuhamedovni Turkmaniston tomonidan Avazada bo‘lib o‘tgan Markaziy Osiyo va Ozarbayjon davlat rahbarlarining Maslahat uchrashuvi, MDH sammiti va Kaspiy ekologik forumiga samarali raislik qilingani hamda ularning muvaffaqiyatli o‘tkazilgani bilan samimiy tabrikladi.

Turkmanistonning mintaqaviy muloqot va ko‘p tomonlama hamkorlikni rivojlantirishdagi muhim rolini yana bir bor namoyon etgan mazkur tadbirlar alohida ahamiyatga ega ekani ta’kidlandi. Erishilgan kelishuvlar mintaqada izchil taraqqiyot va osoyishtalikni ta’minlashga qaratilgan sheriklikning yangi istiqbollarini ochmoqda.

Suhbat davomida izchil rivojlanib, amaliy mazmun bilan boyib borayotgan O‘zbekiston – Turkmaniston strategik sherikligining barqaror ijobiy sur’ati mamnuniyat bilan qayd etildi.

Tomonlar o‘zaro savdo hajmini yanada oshirish, sanoat kooperatsiyasini kengaytirish, energetika, transport va qishloq xo‘jaligi sohalarida loyihalarni amalga oshirish, transport-logistika yo‘nalishdagi o‘zaro bog‘liqlikni mustahkamlash hamda madaniy-gumanitar almashinuvni faollashtirish muhimligini ta’kidladi.

Avazada O‘zbekiston va Turkmaniston o‘rtasida Oliy darajadagi strategik sheriklik kengashini tashkil etish to‘g‘risida tarixiy shartnoma imzolanganiga alohida e’tibor qaratildi.

Ushbu mexanizmni ishga tushirish ikki tomonlama kun tartibining ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha sa’y-harakatlarni tizimli muvofiqlashtirishga xizmat qiladi.

Yetakchilar oliy darajadagi bo‘lajak tadbirlar rejasini ham muhokama qildilar.

Yakunda ko‘p asrlik do‘stlik va yaxshi qo‘shnichilik rishtalari, mushtarak tarix va madaniy an’analarga asoslangan O‘zbekiston – Turkmaniston hamkorligini izchil rivojlantirish hamda Markaziy Osiyoda tinchlik, osoyishtalik va barqaror taraqqiyotni yanada mustahkamlashga o‘zaro intilish qat’iy ekani ta’kidlandi.

O‘zA.

Aks sado

SHAHARSOZLIK VA RIVOJLANISHNING ZAMONAVIY MODELI

Yangi Toshkent qurilishi mamlakatimizda shaharsozlikka bo‘lgan yondashuvni o‘zgartirish, aholi uchun qulay yashash muhitini yaratish va iqtisodiyotning yangi “o‘sish nuqtalari”ni shakllantirishga qaratilgan yirik loyihadir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ishtirokida yangi shaharda qator obyektlarning ishga tushirilishi va bir qancha loyihalarga start berilishi mazkur jarayonning navbatdagi muhim bosqichini boshlab berdi.

Bu yer nafaqat turarjoylar barpo etiladigan hudud sifatida, balki ta’lim, tibbiyot, biznes, turizm va xizmat ko‘rsatish sohalari bir-biri bilan uyg‘un rivojlanadigan iqtisodiy markaz sifatida shakllanmoqda. Ushbu hududda muhandislik infratuzilmasi, energiya ta’minoti, transport va ijtimoiy obyektlarning uy-joylar bilan birgalikda barpo etilishi shaharning uzoq muddatli rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega.

4

BUNYODKORLIK SALOHIYATI MUJASSAM KENT

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Yangi Toshkentga tashrif buyurib, bu yerda yirik loyihalarni amalga oshirayotgan investorlar va tadbirkorlar bilan uchrashdi hamda qator obyektlarni foydalanishga topshirish va yangilarining qurilishini boshlash marosimida ishtirok etdi. Bu voqea barchamiz uchun katta quvonch hamda g‘urur manbaidir, chunki Yangi Toshkent bugun haqiqiy qurilish va sanoat markaziga aylanib bormoqda.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlarining fikr-mulohazalari shu haqda.

Mohira XO‘JAYEVA,
Mehnat, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy masalalar qo‘mitasi a’zosi:

– Yangi Toshkent – mamlakatimiz tarixidagi eng yirik shaharsozlik loyihalaridan biri. Zamonaviy, xavfsiz va ekologik barqaror shahar sifatida barpo etilayotgan ushbu maskan zamonaviy texnologik yechimlarga asoslangani bilan yanada ahamiyatlidir.

4

Ehtirom

YANGI TOSHKENT SHA’NIGA

Intilganga tole yor deb
shu donishmand xalq aytgan,
Xalq aytganmi, demak, buni
Haq taolo, Haq aytgan.

Intilmasak, tog‘u qirdan,
dovonlardan osholmaymiz,
Prezident aytgandayin:
Biz eskicha yasholmaymiz!..

Ko‘ring, do‘stlar, vaqt shiddati,
sertahlika dunyoni,
Besh yilda biz bunyod etdik
Yangi O‘zbekistonni.

Na bir nafas rostlagaydir,
na bir hordiq olgaydir,
Yurt egasin shiddatidan
vaqt ham ortda qolgaydir.

Biz vaqtni orzu-maqsad
jilovi-la boyladik,
Ona Yerning yuragiga
niyatlarni joyladik.
Shoirlari bulbullardan
qolishmagan Boshkentim,

Parij, London, Rumolarga
alishmagan Toshkentim[1].

Barchamizni sen o‘stirding
mehring berib, erkalab,

Qaldirg‘ochlar vijir-vijir
keldi bu tong ertalab.
Ular kelmish Hindistonu
xuddi Makkatillodan,

Valfajrlar o‘qir baxtu
tinchlik so‘rab Ollohdan.
Bu davronlar – farzandlarning
ato ham onosiday,

Yangi Toshkent qad rostlagay
Renessans binosiday.
Ellik yillar avval men ham
paxta terib, tola jon,

Egatlardan senga boqib
havas qilgum, bolajon.
Yangi shahar bunyod bo‘lar
chiroyli ham ozoda,

Aytib ketgan ekan bir payt
domla Maqsud Shayxzoda:
Boqiy erur shaharlaru
umrlar – o‘tkinchidir,

Ulug‘ daryolar oqqaylar,
gar suvlar ko‘chkinchidir.
Yangi shahar bunyod bo‘lar,
yaralgay yangi dargoh,

Oftob avval chiqib senga
ta’zim qilgay, inshoolloh.
Millyon-millyon ovozlarga
yo‘g‘rilgaydir bu shahar,

Saharlari zarhal uning,
sarhadlari esa zar.
Bir millyon ko‘ngillarda
nur taratgay saxovat,

Bir millyon orzu-umid,
bir millyon saodat.
Har bino, har inshootning
Vatanday keng mazmuni,

Qatlam-qatlam qalbimizdan
tiklagaymiz biz uni.
Ona yurtim, yangi bog‘u
bahoringga tasanno,

Mutlaq yangi zamon qurgan
Me’moringga tasanno!
Yangi shahar mangu yashar,
mangu yashar mehr ham,
Bu she’rimni ming yillarni
chamalab yozdim men ham.

Sirojiddin SAYYID,
O‘zbekiston xalq shoiri,
Oliy Majlis Senati a’zosi.

[1] G‘afur G‘ulom ta’biri

www.xs.uz /xalqsuzi.uz @xs_uz

Xalq so‘zi
2026-yil 13-oktyabr

«O‘Z G‘OYANG! O‘Z SARMOYANG! O‘Z KELAJANING! YANGI O‘ZBEKISTON, YANGI TOSHKENT – O‘ZIMIZNIKI!»

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

Umumiy maydoni 818 ming kvadrat metrdan ortiq bo‘lgan “Metropolis” biznes-sitida ofislar, mehmonxona, turarjoylar va xizmat ko‘rsatish obyektlari joylashtiriladi. Bu yerda 1,5 ming nafar kishining bandligi ta’minlanadi. Bundan tashqari, “Silk City”, “Mavj” va “Marjon” turarjoy majmualari hamda 120 o‘rinli Yangi Toshkent markaziy shifoxonasi quriladi.

Davlatimiz rahbari ushbu loyihalar Yangi Toshkentning biznes, turizm va madaniyat markazi sifatida shakllanishiga xizmat qilishini ta’kidlab, shahar bunyodkorligida ishtirok etayotgan quruvchilar, muhandislar, loyihachilar va xorijlik hamkorlarga minnatdorlik bildirdi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Yangi Toshkent qurilishini jadallashtirish masalalari yuzasidan investor va tadbirkorlar bilan ochiq muloqot o‘tkazdi.

Shahar uchun jami 20 ming gektar yer ajratilgan. Birinchi bosqichda 6 ming gektar maydonda 50 milliard dollarlik loyihalarni amalga oshirish ko‘zda tutilgan. Hozir ming gektardan ortiq maydonda, asosan, davlat mablag‘i hisobidan qurilish olib borilayotgan bo‘lsa, tadbirkorlarga 94 gektar yer ajratilgan.

Qurilishga xususiy sektorni jalb etish sur’atlari mavjud imkoniyatlarga mos emasligi qayd etildi.

– Yangi Toshkent faqat yangi uy-joy quriladigan hudud emas, – dedi Prezidentimiz.

Yangi shahar biznes, ta’lim, tibbiyot, turizm va xizmat ko‘rsatishni o‘ziga jalb etadigan mustaqil iqtisodiy markazga aylanishi zarur. Shu nuqtayi nazardan, investorlarga ajratilgan yerlarning uchdan ikki qismi uy-joy loyihalariga to‘g‘ri kelayotgani, 28 ta lotda esa faol qurilish boshlanmagani ko‘rsatib o‘tildi.

Davlatimiz rahbari bunday holatni investorlarda mablag‘ yoki qiziqish yo‘qligi bilan izohlash to‘g‘ri emasligini ta’kidlab, tadbirkorga yer ajratishdan tortib, obyektni ishga tushirishgacha bo‘lgan jarayonlarni qayta ko‘rib chiqish vazifasini qo‘ydi. Chunki eskicha talablar, cho‘ziladigan ruxsat jarayonlari va ayrim idoralarning hamkor o‘rniga nazoratchi sifatida ish tutishi loyihalarga to‘siq bo‘lmoqda.

– Investor esa kutmaydi. U ko‘mak va kafolat sezmasa, mablag‘ini boshqa bozorga yo‘naltiradi, – dedi mamlakatimiz yetakchisi.

Joriy yil oxirigacha shaharda 20 ming xonadon foydalanishga topshirilishi rejalashtirilgan. Prezidentimiz uylar bilan bir vaqtda aholiga zarur dam olish, sport, savdo, ta’lim va tibbiyot xizmatlari ham yo‘lga qo‘yilishi kerakligini ta’kidladi.

Shaharda FIFA talablariga javob beradigan 55 ming o‘rinli stadion qurilmoqda. Kelgusi yil 20 yoshgacha bo‘lgan futbolchilar o‘rtasidagi jahon chempionati munosabati bilan mehmonxona, ovqatlanish va ko‘ngilochar maskanlarga ehtiyojni hisoblab, tadbirkorlarga aniq investitsiya takliflarini taqdim etish topshirildi.

Yangi shaharda ishbilarmonlik muhitini shakllantirishda davlat idoralarining ko‘chishi ham muhim o‘rin tutadi. Hozir Qurilish, Transport va Energetika vazirliklari bu yerda faoliyat yuritmoqda. Qolgan vazirlik va davlat tashkilotlarining ham Yangi Toshkentga ko‘chirilishini boshlash topshirildi.

Muloqotda shaharning master rejasini amalga oshirishda investorlar tashabbusiga kengroq yo‘l ochish zarurligi qayd etildi. Shahar manfaatiga xizmat qiladigan o‘ziga xos loyihalar uchun lot maydoni yoki obyekt turini o‘zgartirish haqidagi takliflar tez hamda aniq mezonlar asosida ko‘rib chiqilishi kerak. Konsepsiyasi, loyiha hujjatlari va qurilish ruxsati oldindan tayyorlangan maydonlar sonini ko‘paytirish vazifasi qo‘yildi.

Yirik tijorat obyektlarini jalb etish uchun ochiq tashabbus va “Swiss challenge” tamoyili asosida yer ajratish amaliyoti yo‘lga qo‘yiladi.

Xizmat ko‘rsatish va ijtimoiy obyektlar qurilishini rag‘batlantirish maqsadida infratuzilma to‘lovlari qayta ko‘rib chiqiladi. Bazaviy stavka savdo, servis va biznes markazlari uchun uch barobar, mehmonxona va turizm obyektlari uchun besh barobar, madaniyat va ko‘ngilochar maskanlar uchun o‘n barobar kamaytiriladi. Xususiy bog‘cha, maktab va shifoxonalar uchun to‘lov bir foiz etib belgilanadi. Ushbu tartib qurilishi boshlangan loyihalarga ham tatbiq etiladi.

Yangi Toshkentda “yashil bino” standartlarini qo‘llash bilan bog‘liq xarajatlarni yengillashtirish choralari ham belgilandi. Qiymati 50 million dollardan yuqori bo‘lgan noturarjoy loyihalari uchun “yashil” sertifikat olish xarajatlari davlat tomonidan to‘liq qoplanadi. Investor sotib olgan har bir yer maydonining 30 foizini ko‘kalamzorlashtirish talabi bu yerda qo‘llanmaydi: shahar hududining 30 foizini yashil maydonga aylantirish bosh reja asosida davlat tomonidan ta’minlanadi.

Yirik sarmoyadorlar bilan ishlashda ham yangi yondashuv joriy etiladi. Xususan, “50 million dollardan yuqori har bir loyihaga – bitta investitsiya bitimi” tamoyili amal qilinib, bitimda investorga mos imtiyozlar paketi belgilanadi. Bunday yuqori qiymatli har bitta loyihaga mas’ul biriktirilib, u obyekt ishga tushguniga qadar investorga hamrohlik qiladi.

Yangi imkoniyatlardan butun mamlakat tadbirkorlari foydalanishi uchun poytaxtning har bir tumaniga va respublikaning qolgan 13 ta hududiga Yangi Toshkentdan 100 gektardan maydon ajratiladi. Ushbu yerlar bo‘yicha dastlabki auksionda tegishli hudud tadbirkorlari ishtirok etadi.

Xorijlik investorlar uchun esa dastlabki 50 ta lot belgilandi. Ularning joylashuvi, iqtisodiy hisob-kitoblari va yaratilgan imkoniyatlar aks etgan takliflar paketi diplomatik vakolatxonalar orqali yetkaziladi. Vazirlarga ham yirik xorijiy kompaniyalar bilan uchrashuvlarda Yangi Toshkent loyihalarini taqdimot qilib borish vazifasi qo‘yildi.

Shuningdek, Samarqand shahridagi “Shirin” massivi qurilishi ko‘rib chiqildi. Bu yerda ishlar sust borayotgani tanqid qilinib, Yangi Toshkent uchun belgilangan imtiyoz va imkoniyatlar ushbu massivga ham tatbiq etilishi ma’lum qilindi.

Muloqotda Prezidentimiz O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun yangi g‘oya – “O‘Z” falsafasini ilgari surdi.

“O‘Z” – O‘zbekiston, O‘zgarish, O‘zlik va Mas’uliyat degani. Kimki yurtimizga sarmoya kiritib, zamonaviy texnologiya olib kelsa va odamlarga ish o‘rni yaratsa, qaysi mamlakat yoki shahardan kelganidan qat’i nazar, umumiy taraqqiyotga hissa qo‘shadi. Davlatimiz rahbari investor va tadbirkorlarni “O‘z g‘oyang! O‘z sarmoyang! O‘z kelajaging! Yangi O‘zbekiston, Yangi Toshkent – o‘zimizniki!” degan yangi shior atrofida birlashishga chaqirdi. Yangi Toshkentda mamlakatimiz uchun muhim bo‘lgan ko‘plab o‘ziga xos loyihalar amalga oshirilishiga ishonch bildirdi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tadbirkor va investorlarning taklif va tashabbuslaridan xursandligini bildirib, ularga qarata Yangi O‘zbekistonni, Yangi Toshkentni bunyod etishda har bir loyihani katta g‘urur bilan qilishlarini aytdi. “Biz buni xalq uchun, millat uchun, kelajagimiz va bolalarimiz uchun qilyapmiz”, dedi davlatimiz rahbari pirovardida.

Prezidentimiz e’lon qilingan imkoniyatlar qog‘ozda qolmasligi, ular yer uchastkalari, iqtisodiy hisob-kitoblar va amalga oshirish muddatlari ko‘rsatilgan tayyor taklif sifatida sarmoyadorga yetib borishi zarurligini ta’kidladi.

Said RAHMON
(“Xalq so‘zi”).

KAMBAG‘ALLIK GIRDOBI

bilimsizlik, hunarsizlik ongimizga o‘rnashib qolgan ko‘nikish oqibati

Kambag‘allik hamma mamlakatlarda bor. Biroq buni tan olishga o‘zida jur’at topa oladigan davlat rahbarlari sanoqlidir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev bundan olti yil oldin O‘zbekistonda kambag‘allik mavjudligini qayd etib, unga qarshi kurash boshlagan edi. “Hududlarda, ayniqsa, qishloqlarda aholining aksariyat qismi yetarli daromad manbaiga ega emasligi sir emas. Har qanday mamlakatda bo‘lgani kabi bizda ham kam ta’minlangan aholi qatlamlari mavjud. Turli hisob-kitoblarga ko‘ra, ular taxminan 12 – 15 foizni tashkil etadi. Bu yerda gap kichkina raqamlar emas, balki 4-5 million aholimiz vakillari haqida ketyapti”, degan edi o‘shanda davlatimiz rahbari.

Mushohada

To‘g‘risini aytganda, biz mustaqillikning dastlabki 25 yilida bu raqamlardan ko‘z yumdik. Kambag‘allar bor edi. Lekin davlat tomonidan ular uchun aniq, manzilli ijtimoiy himoya tizimi yaratilmagandi. Zarur o‘rganishlar o‘tkazilmagani oqibatida aholining bu qatlami hayoti borgan sari og‘irlashib, murakkablashib borardi. Vaziyat zudlik bilan xulosalar chiqarish, chora-tadbirlar belgilashni taqozo etardi.

Buni chuqur anglagan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev *“Xudo menga sog‘liq berib, umr bersa, bizda kambag‘allik va ishsizlik bo‘lmaydi. Nimaga desangiz, bunga men yetti yil umrimni tikdim. Tizim yaratdim, qonun yaratdim, dunyoni ochib berdim. Xalqim yaxshi yashasin, niyatlari amalga oshsin, bolalari baxtli bo‘lsin, nevaralari sog‘lom tug‘ilsin, maktabi ishlasin, yo‘llari ravon bo‘lsin deb ishga keldim”*, degandi.

AQShning 32-Prezidenti Franklin Ruzvelt *“Men xalqning uchdan bir qismini munosib uy-joysiz, munosib kiyimsiz va to‘yib ovqatlanmayotgan holda ko‘ryapman… Bizning taraqqiyot mezonimiz – mo‘l-ko‘lchilikka ega bo‘lganlarning boyligini yanada oshirish emas, balki juda kam narsaga ega bo‘lganlarga yetarli imkoniyat yarata olishimizdir”* degan.

Prezidentlar – Franklin Ruzvelt va Shavkat Mirziyoyev nuqtayi nazarida o‘xshashlik hamda yaqinlikni, kuchli siyosiy irodani ilg‘ash qiyin emas. Binobarin, AQSh ham Franklin Ruzveltgacha bo‘lgan davrda muammolar girdobida qolgan edi.

Prezidentimiz kambag‘allik haqida birinchi bor gapirganida, to‘g‘risi, xavotirga tushganman. Chunki faqat tan olishning o‘zi yetarli emas, tan olish bilan birgalikda kambag‘allikni bartaraf etishdek o‘ta og‘ir, murakkab vazifa zimmaga olingan edi. Iqtisodiyoti O‘zbekistondan ancha baland davlatlarda ham bu ish oson kechmagan. Ammo O‘zbekiston rahbari Shavkat Mirziyoyev davlat boshqaruvida hech qachon qiyinchiliklardan qo‘rqmagan.

Nazarimda Prezidentimizning siyosiy irodasi ikki o‘rinda yaqqol namoyon bo‘ladi. Birinchisi – xalqimizning paxta qulligi va majburiy mehnatdan batamom qutulishi. Ikkinchisi – kambag‘allikka qarshi kurashning boshlanishi va qisqa muddatda o‘z natijalarini bera boshlashi. Prezidentimiz 2020-yil yanvar oyida kambag‘allik haqida gapirib, uni bartaraf etishga kirishgan bo‘lsa, 2026-yilga kelib O‘zbekistonda kambag‘allik darajasi 12 – 15 foizdan 3,9 foizga tushdi.

Nyu-Dehlidagi Xalqaro menejment institutining “Associated Cement Companies” xalqaro moliya va biznes bo‘limi rahbari bo‘lib ishlagan, ayni paytda Samarqand davlat universiteti professori lavozimida faoliyat ko‘rsatayotgan Arindam Banikning ta’kidlashicha, *“Prezident Shavkat Mirziyoyevning kambag‘allikni qisqartirish borasida yaratgan konsepsiyasi va qisqa muddatda erishgan ulkan natijasini butun dunyoga ibrat qilib ko‘rsatsa bo‘ladi. Kambag‘allikni bartaraf etishda O‘zbekiston tajribasi mavzusiga bag‘ishlangan xalqaro anjuman o‘tkazish maqsadga muvofiqdir”*.

Men bu e’tirofdan faxrlandim. Professor Arindam Banikning taklifini chuqur qoniqish bilan qabul qildim. Samarqand davlat universitetida u taklif etgan mavzuga bag‘ishlangan xalqaro konferensiyaga tayyorgarlik ishlari boshlangan.

Bugun O‘zbekistonda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev siyosiy irodasi bilan kambag‘allikni batamom yo‘qotish arafasida turibmiz. Bunday deyishga to‘la asoslar bor. Mamlakatimizda bu borada aniq hisob-kitoblar va belgilangan chora-tadbirlar mavjud. Prezidentimiz kambag‘allikni tugatish masalasida nazoratni o‘z qo‘liga olgan.

Yil boshida 5,8 foizni tashkil etgan kambag‘allik darajasi bugungi kunga kelib 3,9 foizga tushdi. Ehtiyojmand aholi soni 2 million 200 ming nafardan 1,5 mln. nafargacha kamaydi. Ishlar to‘g‘ri tashkil qilingan 49 ta tuman va 3 429 ta mahalla ishsizlik va kambag‘allikdan xoli hududga aylanib bormoqda. Bu raqamlar ortida davlatdan, Prezidentimizdan minnatdor bo‘lgan taqdirlar – yaxshi yashash orzusi ro‘yobga chiqqan onalar, bolalar, keksalar bor.

Men yaqinda kanadalik-amerikalik psixiatr, jamoat arbobi, ijtimoiy tadbirkor, pedagog va yozuvchi Pol Polakning “Kambag‘allik girdobi” nomli asarini o‘qish davomida muallifning hayoti va ijodi bilan qiziqdim. E’tiborimni tortgan jihati shuki, u qator notijorat ijtimoiy tashkilotlar asoschisi ekan: “International Development Enterprises” – Osiyodagi kambag‘al fermerlar uchun suv nasoslari ishlab chiqarish, “Windhorse International” – arzon quyosh energetikasi qurilmalari va suvni tozalash uskunalarini ishlab chiqarish, “D-Rev” – arzon protezlar va tibbiy jihozlar ishlab chiqarish, “Spring Health Water” – kambag‘al qishloqlarda suv saqlash hovuzlarini qurish.

Pol Polakning asosiy maqsadi kambag‘allikka qarshi iqtisodiy jihatdan barqaror usullar orqali kurashish hamda kuniga 2 AQSh dollari hisobiga kun kechirayotgan milliardlab insonlarga yordam berishdan iborat bo‘lgan. Shu maqsadda u ko‘plab ijtimoiy loyihalarni yo‘lga qo‘ygan. Bu tajribani o‘zbekistonlik sarmoyadorlar, yirik ishlab chiqaruvchilar ham hayotga tatbiq etishsa, ulkan natijalarga erishish mumkin.

Kambag‘allikni kamaytirish – bu aholida tadbirkorlik ruhini uyg‘otish, insonning ichki kuch-quvvati va salohiyatini to‘la ro‘yobga chiqarish, yangi ish o‘rinlari yaratish bo‘yicha kompleks iqtisodiy hamda ijtimoiy siyosatni amalga oshirish.

Tadbirkorlik – bu bilim, ko‘nikma, tajriba orttirish, yangilikka, yangilanishga, o‘zgarishga intilish, o‘z hayotini isloh qilish, stereotiplardan voz kechish, yashash tarzini qayta qurish.



Nazarimda, iqtisodchi olimlarimiz, taniqli tadbirkorlarimiz, yirik ishlab chiqaruvchilar bu borada sustkashlikka yo‘l qo‘yayotganday. Biz tadbirkorlikni kambag‘al aholi ongiga singdirishimiz, tushuntirishimiz, bu borada fidoyi bo‘lishimiz zarur.

Kambag‘allikni keltirib chiqaruvchi omillardan biri – bilimsizlik. Bugun butun dunyoda bilim tijoratlashib bo‘lgan. Rivojlangan, taraqqiy etgan mamlakatlarda bilimdonlar va iste’dodlilar alohida qadrlanadi. Yoshlarning bilim olishlari uchun barcha shart-sharoit yaratib beriladi. Masalan, Xitoyda kambag‘al oilalarda tug‘ilgan bolalarni o‘qitish masalasiga jiddiy e’tibor qaratilishi natijasida o‘qib, hayotda o‘z o‘rnini topgan yoshlar keyinchalik butun oilani kambag‘allikdan qutqargan. 1986-yilda Xitoy to‘qqiz yillik majburiy ta’lim to‘g‘risidagi qonunni qabul qilgan. Jahon bankining ma’lumotiga ko‘ra, ushbu dastur “Xitoy qishloqlarida kambag‘allikni kamaytirish uchun to‘qqiz yillik majburiy ta’limni umumlashtirish” deb ta’riflangan. Bunday siyosat natijasida qishloq aholisining bilim va ko‘nikmalari oshgan, bu ularning yangi iqtisodiy imkoniyatlardan foydalanishiga yordam bergan. Xitoy kambag‘allikka qarshi faqat ijtimoiy yordam berish bilan kurashmagan. U bunga odamlarga ta’lim berish, kasb hamda malaka o‘rgatish, ish o‘rinlari yaratish, sanoatni rivojlantirish va odamlarni iqtisodiy faollikka jalb qilish orqali erishgan.

Shu bois bizda ham kambag‘al oilalarda o‘sayotgan bolalarning ta’lim-tarbiyasiga – maktabdan boshlab, to oliy o‘quv yurtigacha alohida e’tibor qaratish talab etiladi.

Kambag‘allikka qarshi kurashda Janubiy Koreya tajribasi ham bizga qo‘l keladi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti ma’lumotiga ko‘ra, 1945-yilda Janubiy Koreyada savodxonlik darajasi atigi 22 foiz edi. Bolalarning 20 foizdan kamrog‘i o‘rta maktabda o‘qigan. Keyin ta’lim juda tez ommalashadi. Jahon banki ma’lumotiga ko‘ra, 1960-yilga kelib savodxonlik 72 foizga yetgan. Demak, mamlakat hali juda kambag‘al bo‘lgan davrning o‘zidayoq bolalarni maktabga jalb qilish jadallashgan. “Avval ta’lim, keyin sanoat” degan fikrda asos bor. Jahon bankining Koreya iqtisodiy rivojlanishiga bag‘ishlangan tadqiqotida juda muhim ma’lumot keltiriladi: 1945-yilda mamlakatda 8 ming nafarga yaqin talabalar mavjud bo‘lsa, 1960-yilga kelib ularning soni 100 mingdan oshgan. Eng muhimi, Koreyada ta’limning rivojlanishi mamlakatning umumiy iqtisodiy taraqqiyotidan oldinroq sodir bo‘lgani alohida qayd etiladi.

Bu boradagi kuzatishlar shuni ko‘rsatdiki, har ikkala davlatda ham kambag‘allikka qarshi kurashda ta’lim tizimi muhim o‘rin egallagan. Biz ham sifatli ta’limsiz yuqori natijalarga erisha olmaymiz.

Kambag‘allikka qarshi kurashda milliy qadriyatlarimiz, muqaddas dinimiz ahkomlariga ham tayanishimiz zarur. O‘tmishda xalqimiz kambag‘al, boquvchisini yo‘qotgan oilalar farzandlariga, yetim-yesirlarga, beva-bechoralarga bee’tibor bo‘lishmagan. Bunday oilalarning bolalariga savob ilinjida hunar o‘rgatishgan va o‘z ishini boshlashiga ko‘maklashilgan. Hunar o‘rgangan bola ro‘zg‘or tebratgan. Oila iqtisodiyotini yaxshilagan. Azal-azaldan bizda boqimandalikka salbiy qaralgan. Xalqimiz bilib aytgan: “Qo‘ldan berganga qush to‘ymas”, “Yotib yeganga tog‘ chidamas”, “Hunar – hunardan rizqing unar”. Demak, kambag‘al oilalar farzandlarining nafaqat yaxshi o‘qishi, balki ularning hunar o‘rganishiga ham alohida e’tibor qaratilishi kerak. Bunda yurtdoshlarimizning fidoyiligi juda muhim.

Kambag‘allikning eng xavfli va xavotirli tomoni shundaki, u insonning ongiga o‘rnashib qoladi. Insonda kambag‘allikka ko‘nikish boshlanadi. Mana bu xavfli. Biz mustaqillikning dastlabki 25 yilida mana shu mudhish xatoga yo‘l qo‘yganmiz. Keyingi o‘n yilda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev odamlarning ongidan kambag‘allik, beparvolik, ko‘nikish illatlarini chiqarib tashlash borasida ham ulkan ishlarni amalga oshirdi.

2016 – 2026-yillar tafakkurimizga cho‘kib, o‘rnashib qolgan illatlarni bartaraf etish davri sifatida tarixga kiradi. Shotlandiyalik iqtisodchi, iqtisodiyot nazariyasi asoschilaridan biri Adam Smit ta’kidlaganidek: *“A’zolarining katta qismi kambag‘al va nochor bo‘lgan jamiyat hech qachon ravnaq topgan va baxtli jamiyat bo‘la olmaydi”*.

Agar biz kambag‘al insonlarni tinglashni, sharoitlarini tushunishni va tadbirkorlik salohiyatidan foydalanib, daromadlarini oshirishni o‘rgansak, ular bir avlod davomida kambag‘allikdan chiqishning amaliy yo‘llarini, albatta, topa oladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari Saida Mirziyoyeva BMT Bosh Assambleyasining 81-sessiyasidagi nutqida jahon hamjamiyati e’tiboriga quyidagilarni havola qildi: *“O‘zbekistonda so‘nggi o‘n yilda aholining xarid qobiliyati ikki baravar oshdi. Iqtisodiyot hajmi 50 milliard dollardan 147 milliard dollarga yetdi. 150 milliard dollardan ortiq xorijiy investitsiyalar jalb qilindi. Eksport qariyb uch baravar o‘sdi, kambag‘allik darajasi to‘rt foizga tushib, qariyb o‘n million aholi kambag‘allikdan chiqarildi”*.

Mamlakat taraqqiyot yo‘liga chiqib olganidan so‘ng jamiyatning ehtiyojmand qatlamiga alohida e’tibor qarata boshlaydi. Bu haqiqat tarixda ham o‘z isbotini topgan. Amerikalik huquq himoyachisi, Nobel mukofoti sohibi Martin Lyuter Kingning *“Kambag‘allik yangilik emas. Yangilik shundaki, endi bizda uni yo‘q qilish uchun yetarli resurslar mavjud”*, degan so‘zlari bugun ayni O‘zbekistonga taalluqlidek.

Rustam XOLMURODOV,
Samarqand davlat universiteti rektori, O‘zbekiston Respublikasi fan arbobi, Oliy Majlis Senati a’zosi.

Senat qo‘mitasida

MAQSAD – HUQUQBUZARLIKLARGA QARSHI KURASHISH

Bojxona sohasidagi huquqbuzarliklarga qarshi kurashish mexanizmlarini takomillashtirish, Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish hamda Sirdaryo viloyati shahar va tumanlarining ma’muriy-hududiy chegaralarini o‘zgartirish masalalari Oliy Majlis Senati Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasining navbatdagi majlisida ko‘rib chiqildi.

“O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga bojxona sohasidagi huquqbuzarliklarga qarshi kurashish mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi qonun muhokamasida qayd etilganidek, amaldagi qonunchilikda katta miqdordagi bojxona to‘lovlarini to‘lashdan bo‘yin tovlaganlik uchun jinoiy javobgarlikning mavjud emasligi ularga qarshi kurashish samaradorligiga ta’sir ko‘rsatmoqda. Jumladan, 2022-yilda 162 mlrd. so‘mlik 291 ta, 2024-yilda esa 247 mlrd. so‘mlik 348 ta holat aniqlangan.

Qonun bilan katta miqdordagi bojxona to‘lovlarini to‘lashdan bo‘yin tovlaganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilash, shuningdek, bojxona organlari tomonidan surishtiruv shaklida tergov qilinadigan jinoyatlar doirasini kengaytirish nazarda tutilmoqda.

“O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi qonun muhokamasida esa chet davlat hududidagi qurolli to‘qnashuvlar yoki harbiy harakatlarda qatnashishni, chet davlatning harbiy xizmatiga yollanishni targ‘ib etuvchi materiallarni tayyorlash, tarqatish, reklama qilish va namoyish etish, shuningdek, shaxsning o‘zi sodir qilgan huquqbuzarligi aks etgan materiallarni tarqatish yoki namoyish qilish uchun javobgarlik belgilanishi bilan bog‘liq normalar ko‘rib chiqildi.

Ushbu me’yorlarni amaliyotda qo‘llash, ularning huquqiy jihatdan aniq va bir xil talqin etilishini ta’minlash hamda ijro mexanizmlarini belgilash yuzasidan qo‘shimcha tushuntirish va asoslantirish zarurligi ta’kidlandi.

“Sirdaryo viloyatining Guliston, Shirin, Yangiyer shaharlari, Guliston, Boyovut, Mirzaobod, Oqoltin, Sardoba, Sayxunobod, Sirdaryo, Xovos tumanlari ma’muriy-hududiy chegaralarini o‘zgartirish to‘g‘risida”gi masalani ko‘rib chiqish chog‘ida bildirilganidek, hududlarni kompleks rivojlantirish, aholi uchun munosib turmush sharoitlarini yaratish, infratuzilmani takomillashtirish va yer resurslaridan samarali foydalanishda ma’muriy chegaralarni aniq belgilash muhim ahamiyatga ega.

So‘nggi yillarda Sirdaryo viloyatida aholi punktlarining kengayishi, yangi turarjoylar, ijtimoiy obyektlar va investitsiya loyihalarining barpo etilishi natijasida hududlarning mavjud chegaralarini qayta ko‘rib chiqish zarurati yuzaga kelgan. Taklif qilinayotgan o‘zgartirishlar Guliston va Shirin shaharlarini qo‘shimcha yer maydonlari bilan ta’minlash, aholining uy-joyga ehtiyojini qondirish, ijtimoiy va muhandislik infratuzilmasini rivojlantirish, yangi investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun zarur sharoit yaratishga qaratilgan. Shu bilan birga, Guliston, Shirin va Yangiyer shaharlari hamda viloyatning tumanlari ma’muriy-hududiy chegaralarini aniqlashtirish orqali hududiy boshqaruv samaradorligini oshirish nazarda tutilmoqda.

Onlayn muloqot

PARLAMENTLARARO HAMKORLIK MASALALARI E’TIBORDA

“O‘zbekiston – Singapur” va “Singapur – O‘zbekiston” hamkorlik bo‘yicha parlamentlararo guruhlarining onlayn uchrashuvi bo‘lib o‘tdi.

Unda ikki mamlakat o‘rtasidagi parlamentlararo muloqotni yanada faollashtirish, shuningdek, savdo-iqtisodiy, investitsiya, ta’lim, turizm, raqamlashtirish hamda madaniy-gumanitar sohalardagi hamkorlikni kengaytirish masalalari muhokama etildi.

Ta’kidlanganidek, do‘stlik va o‘zaro hurmatga asoslangan O‘zbekiston – Singapur munosabatlari izchil ravnaq topayotir. Oliy va yuqori darajadagi tashriflar, shuningdek, Tashqi ishlar vazirliklarining muntazam ravishda o‘tkazilayotgan siyosiy maslahatlashuvlari hamkorlikning mustahkam zamini bo‘lib xizmat qilyapti.

Uchrashuvda parlamentlararo hamkorlikni institutsional jihatdan rivojlantirish, jumladan, guruhlarning yig‘ilishlarini muntazam o‘tkazish, tegishli qo‘mitalar o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqalarni yo‘lga qo‘yish, qonun ijodkorligi, parlament nazorati va raqamli boshqaruv sohasida tajriba almashish masalalariga alohida e’tibor qaratildi. Shuningdek, oliy darajada erishilgan kelishuvlar ijrosi ustidan parlament nazoratini kuchaytirish muhimligi ham ta’kidlandi.

“Xalq so‘zi”.

O‘zbekiston va Belarus o‘rtasidagi madaniy-ma’rifiy hamkorlik samaralari o‘laroq, Amir Temurning mashhur “Temur tuzuklari” asari ilk bor belarus tilida nashr etildi.

Senatorlar – hududlarda

Oliy Majlis Senati a’zolarining faoliyatida hududlar bilan yaqin hamkorlik qilish, aholi muammolarini joyida o‘rganish va fuqarolar murojaatlariga yechim topish muhim o‘rin tutadi. Senatorlarning hududlarga tashriflari davomida mahallalardagi mavjud holat, aholining turmush sharoiti, bandlikni ta’minlash, tadbirkorlikni rivojlantirish, ijtimoiy soha muassasalari faoliyati kabi masalalar o‘rganiladi.

Mutasaddilar, mahalliy Kengashlar va jamoatchilik vakillari bilan o‘tkaziladigan uchrashuvlar esa muammolar sabablarini aniqlash, ularni hal etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish imkonini beradi. Chunki parlament faoliyati ma’qullanayotgan qonunlar bilangina emas, balki ularning odamlar hayotida qanday aks etayotgani bilan belgilanadi.

XALQ DARDIGA QULOQ TUTISH – FAOLIYAT MEZONI

Kecha Oliy Majlis Senatining Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasi raisi Qutbiddin Burhonov ishtirokida xalq deputatlari Andijon viloyati Kengashida yig‘ilish bo‘lib o‘tdi. Unda Senatning yigirmanchi yalpi majlisida ma’qullangan qonunlarning mazmun-mohiyati, ularning ijtimoiy-huquqiy ahamiyati, amaliyotga tatbiq etish mexanizmlari hamda qonunchilikda nazarda tutilgan normalarning ijrosini ta’minlash masalalari muhokama qilindi.

Xususan, “Bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonunga alohida e’tibor qaratildi. Mazkur qonun bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilishning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish, bolalarga nisbatan sodir etilgan jinoyatlar uchun javobgarlikni kuchaytirish hamda jabrlangan bolalarning huquq va qonuniy manfaatlari ishonchli himoyasiga qaratilgani ta’kidlandi. Shu bilan birga, bolalarga nisbatan zo‘ravonlik holatlarining barvaqt oldini olish, ularni aniqlash va bartaraf etish, mas’ul davlat organlari va tashkilotlar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, qonunlar ijrosi ustidan deputatlik nazoratini samarali tashkil etish zarurligi aytildi.

Senatning Agrar, suv xo‘jaligi masalalari va ekologiya qo‘mitasi raisi Anvar To‘ychiyev Sirdaryo viloyatida bo‘lib, saylovchilar hamda mahalla faollari bilan ochiq muloqot o‘tkazdi.

Uchrashuv davomida ko‘rib chiqilayotgan va ma’qullanayotgan qonunlar hamda qabul qilinayotgan qarorlarning mazmun-mohiyati yuzasidan batafsil ma’lumotlar berildi. Qonun va qarorlarning ahamiyati, amaliy natijalari, shuningdek, mamlakat taraqqiyotining huquqiy asoslarini mustahkamlashdagi o‘rni haqida fikr yuritildi.

O‘z navbatida, fuqarolarning murojaatlarida ko‘tarilgan masalalarni o‘rganish maqsadida mahallalarga borilib, mavjud muammolar joyida ko‘rib chiqildi. Xususan, mahallalar infratuzilmasi, ichki yo‘llar holati, ichimlik suvi va elektr energiyasi ta’minoti hamda ijtimoiy sohaga oid muammolar yuzasidan fuqarolarning murojaatlari eshitildi.

Senatning Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo‘mitasi raisi Alisher A’zamxo‘jayev Sirdaryo viloyatining Oqoltin tumanida bo‘lib, hududning investitsiyaviy salohiyati, tadbirkorlar faoliyati va aholi murojaatlari bilan qiziqdi.

Dastlab tuman hokimligida aholi, tadbirkorlar hamda mahalliy Kengash deputatlari bilan uchrashuv o‘tkazildi. Unda tadbirkorlikni rivojlantirish, mahalliy va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, investorlar duch kelayotgan muammolarni hal etish hamda yangi ish o‘rinlarini yaratish masalalari muhokamaga tortildi.

O‘rganishlar davomida “Arastu xalqaro maktabi” va “Chelibi textile” MCHJda bo‘lib ularning ish faoliyati bilan ham tanishildi. Maktabda o‘quvchilarga xorijiy tillarda ta’lim berish uchun yaratilgan sharoitlar, korxonada esa ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish holati va faoliyatni kengaytirish imkoniyatlari o‘rganildi.

Mahalliy hamda xorijiy investorlar bilan muloqotlarda mavjud muammolarni hal etish, investitsiya loyihalarini ro‘yobga chiqarish va yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish masalalariga e’tibor qaratildi. Oqoltin tumanining qishloq xo‘jaligi salohiyatidan samarali foydalanish, xususan, qovunchilikni rivojlantirish, mahalliy poliz mahsulotlarini keng targ‘ib qilish va gastronomik turizm imkoniyatlaridan foydalanish masalalariga ham e’tibor qaratildi.

Namangan davlat pedagogika institutida esa Senatning Fan, ta’lim va sog‘liqni saqlash masalalari qo‘mitasi raisi Odiljon Mamatkarimov talaba-yoshlar bilan ochiq muloqot o‘tkazdi.

Unda yoshlarning bilim olishi va intellektual salohiyatini rivojlantirish, ularning huquq va manfaatlarini ta’minlash hamda talaba-yoshlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar yuzasidan fikr almashildi.

Talabalar o‘zlarini qiziqtirgan masalalar yuzasidan taklif va tashabbuslarini bildirish imkoniga ega bo‘ldi. Yoshlar tomonidan ko‘tarilgan muammolarni o‘rganish va ularning yechimi yuzasidan tegishli takliflarni shakllantirishga e’tibor qaratildi.

Senatorning fikricha, bunday ochiq muloqotlar parlament va yoshlar o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlash, ta’lim sohasidagi dolzarb masalalarni bevosita o‘rganish hamda yoshlarning fikr-tashabbuslarini qonun ijodkorligi va parlament nazorati jarayonlarida inobatga olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqori palataning Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo‘mitasi a’zosi Jamila Bobonazarova Jizzax viloyati, G‘allaorol tumanidagi Do‘stlik mahallasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va aholi turmush sharoitlarini yaxshilash borasidagi ishlar bilan tanishdi.

“Mahalla yettiligi” a’zolari va faollar bilan muloqotda ichki yo‘llar, ichimlik suvi hamda elektr ta’minoti bilan bog‘liq masalalar muhokama qilinib, mavjud muammolarni hal etish choralari ko‘rib chiqildi. Shuningdek, aholi bandligini ta’minlash, tadbirkorlikni rivojlantirish, oilalar daromadlarini oshirish va kambag‘allikni qisqartirish, ehtiyojmand oilalarni qo‘llab-quvvatlash, yoshlar hamda xotin-qizlar muammolarini hal etish masalalariga e’tibor qaratildi.

Uchrashuv davomida Senatning 20-yalpi majlisida ko‘rib chiqilgan masalalar va ma’qullangan qonunlarning mazmun-mohiyati yuzasidan ham fikr yuritildi.

Senatning Byudjet va iqtisodiy masalalar qo‘mitasi raisi o‘rinbosari Kobul Tursunov Navoiy viloyatining Xatirchi tumanidagi Navro‘z mahallasida hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar bilan tanishdi.

O‘rganish davomida tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi daromadlarini ko‘paytirish, tomorqalardan samarali foydalanish va ehtiyojmand oilalarni qo‘llab-quvvatlash masalalariga e’tibor qaratildi. Shuningdek, “mahalla yettiligi” faoliyati ham ko‘rib chiqildi.

Bo‘lib o‘tgan ochiq muloqotda fuqarolarning murojaatlari va takliflari tinglanib, aniqlangan muammolarni hal etish hamda infratuzilmani yaxshilash yuzasidan mas’ullarga tegishli tavsiyalar berildi.

Yakunda hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirish, fuqarolar murojaatlarini o‘z vaqtida hal qilish bo‘yicha ishlarni izchil davom ettirish zarurligi ta’kidlandi.

Senatning Fan, ta’lim va sog‘liqni saqlash masalalari qo‘mitasi a’zosi Gulnora Ma’rufova Farg‘ona viloyatining Yozyovon tumanida aholi bandligini ta’minlash, kambag‘allikni qisqartirish, sanoat loyihalarini amalga oshirishga qaratilgan ishlar bilan tanishdi.

Dastlab Yuqori Soybo‘yi mahallasi hududida “Xualong Siliao” MCHJ tomonidan yaratilgan baliq uchun ozuqa ishlab chiqarish majmuasi faoliyati o‘rganildi. Umumiy qiymati 10 mln. dollarni tashkil etuvchi, yillik ishlab chiqarish quvvati 30 ming tonna bo‘lgan korxona 2026-yil iyul oyida to‘liq ishga tushirilgan. Loyiha doirasida 30 ta ish o‘rni yaratish, yillik eksport hajmini 7 mln. dollarga yetkazish hamda byudjetga 2 mlrd. so‘m tushumni ta’minlash ko‘zda tutilgan.

Tuman hokimligida esa senator aholi bandligini ta’minlash, daromadlarini ko‘paytirish va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha tashkil etilgan shtab faoliyati bilan tanishildi. Mahallalarda xonadonbay ishlash, ijtimoiy daftarlarga kiritilgan oilalarni qo‘llab-quvvatlash, aholini daromadli mehnatga jalb etish va mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish masalalari muhokama qilindi.

O‘rganishlar doirasida Bahor mahallasida “mahalla yettiligi” faoliyati ham ko‘rib chiqildi. Bu yerda aholi muammolarini hal etish, xotin-qizlar va yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, bandlikni ta’minlash hamda kambag‘allikni qisqartirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan axborot tinglandi. Yakunda mas’ullarga sanoat loyihasi imkoniyatlaridan samarali foydalanish, aholi bandligini oshirish, mahallalarda hamkorlikni kuchaytirish va belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash yuzasidan tegishli tavsiyalar berildi.

Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasi raisining o‘rinbosari Bahrom Abdullayev Samarqand viloyatining Nurobod tumanida hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari ijrosi, qurilish va obodonlashtirish ishlari, shuningdek, ijtimoiy soha muassasalarida yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi.

Jumladan, Nurbuloq shaharchasini zamonaviy kurort hududiga aylantirish doirasida olib borilayotgan qurilish va obodonlashtirish ishlari ko‘zdan kechirildi. Favvora, vorkaut maydonchasi, salomatlik yo‘lagi, bolalar maydonchasi hamda oqova suvlarni tozalash inshooti qurilishining borishi bilan tanishildi. Shuningdek, Nurobod shahridagi markaziy o‘yingoh, amfiteatr va bolalar o‘yingohida amalga oshirilayotgan ishlar o‘rganildi.

Nurobod tumanidagi 2-texnikumda yoshlarni kasb-hunarga tayyorlash, ta’lim sifatini oshirish va zamonaviy amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish, Abu Ali ibn Sino nomidagi sihatgohda esa davolanuvchilar uchun yaratilgan sharoitlar hamda tibbiy xizmat ko‘rsatish sifati ko‘rib chiqildi. Tuman tibbiyot birlashmasida mavjud tibbiy uskunalar va moddiy-texnik baza, yangi tug‘uruq majmuasida esa qurilish ishlarining borishi, onalar va chaqaloqlarga malakali tibbiy yordam ko‘rsatish uchun yaratilayotgan imkoniyatlarga alohida e’tibor qaratildi.

Bundan tashqari, senator Nurobod tumanidagi 18-umumta’lim maktabida bo‘lib, o‘quvchilar uchun yaratilgan sharoitlar, ichimlik suvi ta’minoti va ta’lim muassasasining 2026-2027-yilgi kuz-qish mavsumiga tayyorgarligini ko‘zdan kechirdi.

“Xalq so‘zi”.

Qonunchilik palatasi fraksiyalarida

INSON HUQUQ VA MANFAATLARI USTUVORLIGI – OLIY QADRIYAT

Siyosiy partiyalarning Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyalari yig‘ilishlari bo‘lib o‘tdi. Ularda ijtimoiy-siyosiy hayotimizga doir masalalar hamda quyi palataning navbatdagi majlisi kun tartibiga kiritilishi rejalashtirilayotgan qator qonun loyihalari atroflicha ko‘rib chiqildi.

Tadbirkorlar uchun davlat xaridlarida yangi imkoniyatlar

Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi yig‘ilishida dastlab Prezidentimizning Turkmanistonning “Avaza” milliy sayyohlik zonasida Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi Davlat rahbarlari kengashidagi nutqining ahamiyati haqida so‘z yuritildi.

Deputatlar davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan muhim tashabbuslar MDH doirasida savdo, investitsiya, transport, energetika, oziq-ovqat xavfsizligi va raqamli xavfsizlik kabi aniq yo‘nalishlarda hamkorlikni yanada kuchaytirishini alohida qayd etdi.

Fraksiya yig‘ilishida davlat xaridlari tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasining muhokamasi ham qizg‘in kechdi.

Ta’kidlanganidek, ushbu hujjat davlat xaridlari sohasida shaffoflikni ta’minlash va raqobat muhitini kengaytirish, xarid qilish tartib-taomillarini xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribasi asosida yanada takomillashtirish, tadbirkorlik subyektlarini davlat xaridlarida faol ishtirok etishga keng jalb qilishga qaratilgan.

Qonun loyihasida davlat xaridlari natijalari, jumladan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar haqidagi ma’lumotlarni Davlat byudjeti ijrosi to‘g‘risidagi hisobotlar tarkibiga kiritish, xaridlar doirasida yetkazib berilgan tovarlar, bajarilgan ishlar va ko‘rsatilgan xizmatlar bo‘yicha ma’lumotlarni hududlar kesimida ochiqlash nazarda tutilmoqda.

Shuningdek, davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha hududiy komissiyalar faoliyatini yo‘lga qo‘yish belgilanmoqda. Bu esa sohada hisobdorlik va nazoratni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Munozaralar davomida fraksiya a’zolari – Zafar Xudoyberdiyev, Saydullo Azimov va Ulug‘bek Qobulov mazkur qonun loyihasining ahamiyati haqida to‘xtalib, hujjatni ikkinchi o‘qishga tayyorlash jarayonida deputatlar tomonidan bildirilgan takliflar asosida uning matni yanada takomillashtirilganini ta’kidlashdi. Shuningdek, deputatlar qonun loyihasidagi ayrim normalar yuzasidan o‘z fikr-mulohazalarini bildirib, ularni yanada takomillashtirishga qaratilgan takliflarni ilgari surdi.

Shu bilan birga, ayrim masalalar yuzasidan qizg‘in bahs-munozaralar bo‘lib o‘tdi. Xususan, fraksiya a’zosi Dilmurod Artiqov davlat xaridlarida qatnashayotgan tadbirkorlarning shikoyatlari respublika va hududiy komissiyalar tomonidan



turlicha tartibda ko‘rib chiqilishi hamda qaysi komissiyaga murojaat qilish bo‘yicha noaniqliklar yuzaga kelishining oldini olish, tadbirkorlarning ortiqcha vaqt va mablag‘ sarflashini kamaytirish hamda huquqlarini samarali himoya qilish maqsadida shikoyatlarni ko‘rib chiqishning yagona tartibini belgilash va komissiyalar vakolatlarini aniq taqsimlash maqsadga muvofiq emasmi, degan savolni o‘rtaga tashladi.

Qonun loyihasiga mas’ul deputat Otabek Musurmonov va mutasaddilar muhokama davomida ko‘tarilgan masalalar yuzasidan atroflicha tushuntirish berib o‘tdi.

Muhokamadan so‘ng qonun loyihasi deputatlar tomonidan qo‘llab-quvvatlandi.

Sanoat xavfsizligini ta’minlash tizimi takomillashtiriladi

“Milliy tiklanish” demokratik partiyasi fraksiyasi yig‘ilishida dastlab Prezidentimizning Markaziy Osiyo va Ozarbayjon davlat rahbarlarining sakkizinchi Maslahat uchrashuvidagi ishtiroki hamda unda ilgari surilgan tashabbuslarning ahamiyati xususida so‘z yuritildi.

Fraksiya a’zolari ta’kidlaganidek, Yangi O‘zbekiston islohotlari nafaqat mamlakatimizdagi ichki o‘zgarishlarda, balki yurtimizning tashqi dunyodagi xalqaro iqtisodiy munosabatlarida ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Davlatimiz rahbari tomonidan bildirilgan takliflar, jumladan, “Olti iqtisodiyot – bir mahsulot” tamoyili asosidagi tashabbuslar barchaning manfaatlarini birdek himoyalashda naqadar ahamiyatli ekanini ko‘rsatdi.

Yig‘ilishda sanoat xavfsizligini ta’minlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi muhokama markazida bo‘ldi.

Qayd etilganidek, so‘nggi yillarda mamlakatimizda sanoat tarmoqlarini rivojlantirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va mehnat xavfsizligini ta’minlash borasida ishlar izchil amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, ishlab chiqarish jarayonlarining murakkablashib borishi sanoat xavfsizligi talablari va huquqiy mexanizmlarni zamon talablariga muvofiq takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Mazkur qonun loyihasi bilan xavfli ishlab chiqarish obyektlarida avariyalar va baxtsiz hodisalarning oldini olish, davlat nazorati samaradorligini oshirish hamda sohadagi mas’ul subyektlarning javobgarligini aniq belgilash nazarda tutilayotir.

Yig‘ilishda fraksiya a’zolari qonun loyihasining dolzarbligi va sohadagi huquqiy mexanizmlarni takomillashtirishdagi ahamiyatiga alohida e’tibor qaratib, o‘z fikr-mulohazalari va takliflarini bildirdi. Qayd etilganidek, mazkur qonun loyihasining qabul qilinishi sanoat xavfsizligini ta’minlashda davlat nazorati samaradorligini oshirishga hamda xavfli ishlab chiqarish obyektlarida avariya va baxtsiz hodisalar xavfini kamaytirishga turtki beradi.

Muhokamadan so‘ng qonun loyihasi qo‘llab-quvvatlandi.



Talablar va javobgarlik kuchaytirilmoqda

O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi yig‘ilishida aholi xavfsizligi, ijtimoiy manfaatlarni himoya qilish hamda ayrim sohalardagi huquqiy mexanizmlarni takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihalari muhokama etildi.

Dastlab sanoat xavfsizligi sohasidagi huquqbuzarliklar uchun javobgarlikni kuchaytirishga qaratilgan qonun loyihasi yuzasidan qizg‘in fikr almashildi. Zero, ishlab chiqarishda xavfsizlik talablariga rioya etilishi, eng avvalo, inson hayoti va salomatligini asrash, shuningdek, yirik iqtisodiy yo‘qotishlarning oldini olishda muhim ahamiyatga ega.

Qonun loyihasi tashabbuskorlarining ta’kidlashicha, amaldagi jazo choralari huquqbuzarliklar oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan zarar ko‘lamiga mutanosib emas. Shu bois xavfli ishlab chiqarish va potensial xavfli obyektlarda avariyalar hamda baxtsiz hodisalarning oldini olish mexanizmlarini takomillashtirish, sanoat xavfsizligi talablarini buzish, tegishli ekspertiza xulosasisiz obyektlardan foydalanish oqibatida insonlar sog‘lig‘iga zarar yetkazish yoki ularning o‘limiga sabab bo‘lish holatlari uchun qat’iy jinoiy javobgarlik belgilash taklif etilmoqda.

Shu bilan birga, sanoat xavfsizligi sohasidagi huquqbuzarliklar uchun jarimalarni sezilarli darajada oshirish, soxta ekspertlik xulosalariga chek qo‘yish va transport vositalarini jarima maydoniga joylashtirish tartibini aniq belgilash nazarda tutilmoqda.

Fraksiya a’zolari loyiha normalarining qo‘llanilishi bilan bog‘liq qator masalalarni ham ko‘tardi. Jumladan, deputat Zuhra Shodiyeva sanoat xavfsizligi qoidalarini buzganlik uchun belgilanayotgan sanksiyalar qaysi holatlarda va qanday tartibda qo‘llanilishiga qiziqdi.

Deputat Firdavs Sharipov esa taklif etilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalarni ishlab chiqishda mas’ul vazirlik va idoralar bilan kelishish, shuningdek, qonun loyihasini jamoatchilik muhokamasiga qo‘yish yuzasidan amaliy tavsiyalar berdi.

Tashabbuskorlar tomonidan yangragan izoh va tushuntirishlardan so‘ng qonun loyihasi fraksiya a’zolari tomonidan qo‘llab-quvvatlandi.

Muhim vazifalar muhokamasi

“Adolat” sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi yig‘ilishida harbiy xizmatni o‘tash tartibini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi ko‘rib chiqildi. Mazkur qonun loyihasi O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida harbiy xizmatning nufuzi va jozibadorligini oshirish, malakali harbiy kadrlarni tayyorlash hamda ularning salohiyatidan samarali foydalanishga qaratilgan.

Loyihada harbiy xizmatchilarning ma’naviy-intellektual salohiyatini yuksaltirish, kitobxonlik madaniyatini rag‘batlantirish, shuningdek, harbiy aviatsiya sohasida malakali mutaxassislarning kasbiy tajribasidan samarali foydalanishga qaratilgan choralar nazarda tutilgan.

Fraksiya a’zosi Dilrabo Xolboyevaning fikriga ko‘ra, harbiy xizmatchilarning bilim va tajribasini qo‘llab-quvvatlash, ularning kasbiy rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish Qurolli Kuchlarning professional salohiyatini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, yuqori malakali uchuvchi mutaxassislarning ko‘p yillik tayyorgarligi va tajribasini harbiy aviatsiyani yanada rivojlantirishga yo‘naltirish mamlakat mudofaa salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Yig‘ilishda hududlarda xorijiy investitsiya loyihalarini amalga oshirish samaradorligi hamda investorlar bilan ishlash tizimi yuzasidan investitsiyalar, sanoat va savdo vaziriga parlament so‘rovi yuborish masalasi ham muhokama etildi.

Aytilganidek, mamlakatda investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay sharoit yaratish va xorijiy sarmoyadorlar bilan hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan choralar izchil davom etmoqda. Biroq investitsiya loyihalarini amalga oshirishda uchrayotgan muammolarni barvaqt aniqlash, ularning yechimini ta’minlash va jalb qilinayotgan mablag‘larning hududlar iqtisodiy taraqqiyotiga ta’sirini oshirish muhim vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Muhokamada mazkur yo‘nalishlarda amalga oshirilayotgan ishlar, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish choralari yuzasidan vazirga parlament so‘rovi yuborish to‘g‘risida qaror bir ovozdan ma’qullandi.

Parlament so‘rovini yuborish taklifi qo‘llab-quvvatlandi

O‘zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi yig‘ilishida Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish agentligi direktoriga parlament so‘rovi yuborish masalasi ko‘rib chiqildi. Unda chiqindilarni boshqarish, sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish hamda mazkur sohada ko‘rsatiladigan xizmatlar uchun to‘lov tizimini takomillashtirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan asoslantirilgan ma’lumot olish nazarda tutilgan.

Fraksiya a’zosi Oybek Rahimov ta’kidlaganidek, chiqindilarni boshqarish tizimini kuchaytirish, ularni qayta ishlash ko‘lamini kengaytirish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri. Bu borada amalga oshirilayotgan ishlar bilan bir qatorda, chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish xizmatlari sifatini yanada oshirish, chiqindi poligonlarini ekologik talablarga muvofiqlashtirish hamda belgilangan vazifalar ijrosi ustidan parlament nazoratini kuchaytirish muhim ahamiyatga ega.

Qayd etilganidek, mamlakatimizda chiqindilarni boshqarish tizimini isloh qilish, chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish sohasida muayyan ishlar bajarilmoqda. Xususan, yuridik va jismoniy shaxslarning chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish xizmatlari sifati yuksaldi. Qattiq maishiy chiqindilarni yoqish orqali elektr energiyasi ishlab chiqarish yo‘nalishidagi loyihalar doirasida Toshkent shahri hamda Toshkent, Qashqadaryo, Samarqand, Farg‘ona, Andijon va Namangan viloyatlarida umumiy qiymati 933 mln. AQSh dollaridan ziyod bo‘lgan loyihalar ishga tushirilgan. Shuningdek, sanitar tozalash korxonalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash maqsadida 384 ta maxsus texnika, 5 700 tadan ortiq konteynerlar, chiqindilarni saralash uchun 4 ta va qayta ishlash uchun 16 ta uskuna xarid qilingan. Bundan tashqari, 33 ta chiqindi yig‘ish shoxobchasi qurilgan.

Ayni paytda deputatlar tomonidan olib borilgan o‘rganishlar tahlili sohada ayrim masalalarga alohida e’tibor qaratish zaruratini ko‘rsatmoqda. Jumladan, chiqindi poligonlarini rekultivatsiya qilish, qattiq maishiy chiqindi poligonlarini sanitariya normalari va qoidalariga muvofiqlashtirish bo‘yicha ishlarni jadallashtirish lozimligi ta’kidlandi.

Muhokama yakunida fraksiya a’zolari Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish agentligi direktoriga tegishli parlament so‘rovini yuborish taklifini qo‘llab-quvvatladi.

“Xalq so‘zi”.

21-22-oktyabr kunlari Samarqand shahrida “Bolalar farovonligiga investitsiya: kelajak avlodlar uchun barqaror va adolatli taraqqiyot sari yo‘l” mavzuida butunjahon sammiti hamda uning doirasida II xalqaro bolalar onkologiyasi kongressi o‘tkaziladi.

www.xs.uz /xalqsuzi.uz @xs_uz

Xalq so‘zi
2026-yil 13-oktyabr

Tarixiy adolat:

QATAG‘ON QURBONLARI OQLANMOQDA

Muazzam istiqlolimizning 35 yilligi tantanalari shukuhi hamon yurtimizda kezib yuribdi. Tabiiyki, bu ulug‘ ayyom baxsh etgan ko‘tarinkilik, baxtiyorlik, g‘urur va iftixor har bir yurtdoshimiz, ezgu niyatli har qaysi inson qalbida bir umrga qolajak. Zotan, davlatimiz rahbari ta’biri bilan aytganda, mustaqillik, eng avvalo, bizga shonu sharafimizni, muqaddas dinimizni, ona tilimizni, unutilayotgan milliy qadriyatlarimizni qaytarib berdi.

Nuqtai nazar

Istiqlol tufayli biz o‘zligimizni angladik, nomi hamisha e’zozda bo‘lgan ota-bobolarimizning munosib vorislari ekanimizni butun dunyoga namoyon qildik. Albatta, bunday bebaho ne’matni qadrlamoq barchamiz uchun ham qarz, ham farzdir. Zero, milliy istiqlol osonlikcha qo‘lga kiritilgani yo‘q. Ozodlik istagida, unga yetishmoq yo‘lida minglab ajdodlarimiz jon berdi. Bugungi avlodning muqaddas burchi ham ana shu shahidlarning xotirasini yod etmoq, ularning ruhiga ehtirom ko‘rsatmoqdir.

Prezidentimiz mustaqilligimizning 35 yilligiga bag‘ishlangan asosiy tantanadagi so‘zlarini erkin hayot uchun jonini fido qilgan ulug‘ ajdodlarimiz xotirasiga hurmat bajo keltirishdan boshlagani ham bejiz emas.

Shu o‘rinda bir jihatni qayd etish joiz. Bugun inson qadrini ulug‘lash g‘oyasini ro‘yobga chiqarish davlatimiz va jamiyatimizning eng ezgu hamda oliy maqsadiga aylangan. Unga erishishning hal qiluvchi omillaridan biri esa xalqimizning tarixiy xotirasini tiklash, millatimiz va mamlakatimiz saodati yo‘lida shahid ketgan ajdodlarimizning pokiza nomlarini abadiylashtirish, ularning xotirasini e’zozlash.

Albatta, davlatimiz rahbari qayd etganidek, Vatan ozodligi va milliy istiqlol yo‘lida jonini fido qilgan Behbudiy, Munavvarqori, Fitrat, Qodiriy, Cho‘lpon kabi jadid bobolarimizning hurriyat haqidagi orzu-niyatlari bugun Yangi O‘zbekistonda to‘liq ro‘yobga chiqmoqda. Buyuklarimizning bebaho merosini o‘rganish, ularning nomini abadiylashtirish borasida misli ko‘rilmagan ishlar amalga oshirilmoqda. Eng muhimi, qat’iy siyosiy iroda tufayli yaqin o‘tmishni tadqiq va talqin qilishda ham xolislik hamda adolat ta’minlanmoqda. Hatto mustaqillik yillarida ham ismini-da aytishga ehtiyotkorlik bilan yondashiladigan millat fidoyilari, haqiqiy qahramonlar nomi oqlanmoqda.

Ayniqsa, Prezidentimizning 2020-yil 8-oktyabrdagi “Qatag‘on qurbonlarining merosini yanada chuqur o‘rganish va ular xotirasini abadiylashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoyishi bu boradagi ishlarni har jihatdan yangi bosqichga olib chiqdi. Birgina misol: keyingi besh yilda Bosh prokuratura tomonidan 1920 – 1950-yillarda siyosiy qatag‘onlar qurboni bo‘lgan qariyb 1 400 nafar shaxsni oqlash yuzasidan Oliy sudga protestlar kiritildi.

Ma’lumki, siyosiy qatag‘on qurbonlarini oqlash va reabilitatsiya qilish nafaqat muayyan shaxslarning buzilgan huquqlarini, balki xalqning tarixiy xotirasini tiklash, haqiqatni qaror toptirish va adolatni yuzaga chiqarishning muhim omillaridan biri.

Sho‘rolar davridagi ommaviy siyosiy qatag‘onlar oqibatida minglab yurtdoshlarimiz asossiz ravishda ta’qibga uchradi, qamoqqa olindi, surgunga jo‘natildi, mol-mulki musodara etildi yoki qatl qilindi. Ularning ko‘pchiligiga “aksilinqilobchi”, “bosmachi”, “millatchi”, “xalq dushmani” kabi siyosiy tamg‘alar bosildi.

...Oqlanganlar orasida milliy istiqlolchilik harakati va milliy davlatchilik tarixida muhim o‘rin tutgan, o‘z davrida xalq manfaati yo‘lida faoliyat yuritgan bir qator taniqli shaxslarning borligi alohida ahamiyat kasb etadi.

Ulardan biri Ibrohim Chakabayev (Laqay) dir. U Turkiston istiqlolchilik harakati tarixida muhim iz qoldirgan shaxs sifatida tarixdan o‘rin olgan. Uning nomi uzoq yillar davomida sovet davri tarixshunosligida biryoqlama va salbiy talqin qilindi. Oqlov jarayoni esa Ibrohim Laqay va uning safdoshlari faoliyatiga arxiv hujjatlari va xolis tarixiy yondashuv asosida qayta nazar tashlash imkonini berdi.

Nosirxonto‘ra Sayyid Kamolxonto‘ra o‘g‘li ham o‘z davrining siyosiy, ma’rifiy va diniy hayotida faol ishtirok etgan, milliy hamda ma’naviy qadriyatlarni asrashga intilgan ziyolilardan edi. Uning nomi ham qatag‘on davrida siyosiy ayblovlar bilan bog‘langan. Nosirxonto‘raning oqlanishi milliy va diniy-ma’rifiy hayotimiz tarixida o‘chirib tashlangan sahifalarni tiklash yo‘lidagi muhim qadamdir.

Shuningdek, Mufti Sadriddinxon Sharifxo‘jayevning oqlanishi ham katta tarixiy ahamiyatga ega. U o‘z davrida diniy ilm va ma’rifat sohasida faoliyat yuritgan, jamiyatning ma’naviy hayotida munosib o‘rin tutgan ulamolardan edi.

Qatag‘on qurbonlari orasida davlat va huquq tizimida mas’ul lavozimlarda ishlagan, o‘z kasbiy faoliyati bilan mamlakat taraqqiyotiga xizmat qilgan shaxslar ham bor edi. Xususan, Sa’dulla Qosimov O‘zbekiston Oliy sudining birinchi raisi sifatida sud-huquq tizimi shakllanishining dastlabki davrida faollik ko‘rsatgan.

Badriddin Sharipov ham qatag‘on siyosati qurboni bo‘lgan davlat va huquq sohasi vakillaridan biri sifatida tariximizda alohida o‘rin tutadi. U O‘zbekiston Bosh prokurori o‘rinbosari lavozimida huquq-tartibot va qonuniylikni ta’minlash tizimida xizmat qilgan. Uning taqdiri o‘sha davrda davlat apparatida xizmat burchini bajargan ko‘plab mutaxassislar ham siyosiy ta’qiblardan chetda qolmaganini ko‘rsatadi. Badriddin Sharipovning oqlanishi uning sha’ni va huquqlarini tiklash bilan birga, sobiq ittifoq davridagi huquqiy tizim hamda siyosiy qatag‘onlar tarixini yanada chuqurroq o‘rganishga xizmat qiladi.

> *“Bugun inson qadrini ulug‘lash g‘oyasini ro‘yobga chiqarish davlatimiz va jamiyatimizning eng ezgu hamda oliy maqsadiga aylangan. Unga erishishning hal qiluvchi omillaridan biri esa xalqimizning tarixiy xotirasini tiklash, millatimiz va mamlakatimiz saodati yo‘lida shahid ketgan ajdodlarimizning pokiza nomlarini abadiylashtirish, ularning xotirasini e’zozlash.”*

Bu insonlar ishiga oid hujjatlarni o‘rganish jarayonida ham huquqiy, ham ma’naviy, ham insoniy nuqtayi nazardan o‘ta dahshatli voqeliklarni ko‘rish mumkin.

E’tibor bering: o‘limga hukm etilganlarning biron-bir aybi belgilangan tartibda sudda isbotlanmagan, hatto ular sudsiz ham javobgarlikka tortilgan. Bu shaxslar dastlabki tergov davrida o‘zlariga qo‘yilgan ayblovlarni inkor etsa-da, ularni ayblash uchun soxta guvohlarning ko‘rsatmalari asos qilib olingan. Ayrim “aybdorlar” faqatgina o‘zbek tilini bilgan va arab alifbosi yozuvida yozma tushuntirish bergan. Shunga qaramasdan, tergov harakatlari boshqa tillarda olib borilgan, ularga hech kim tarjimon yoki tegishli mutaxassis xizmatidan foydalanish imkonini bermagan. Hech bir asosli dalilsiz inson o‘limga mahkum etilavergan...

Albatta, qatag‘on qurboni bo‘lgan bunday tarixiy shaxslar haqida, ularning faoliyati, merosining ahamiyati to‘g‘risida olimlarimiz, tarixchi va mutaxassislar salmoqli izlanishlarni olib bormoqda, jamoatchilik bunday ishlarning amaliy natijalaridan muntazam xabardor qilinmoqda. Biroq masalaning boshqa jihatiga ham alohida e’tibor qaratish lozim, degan fikrdamiz. Gap shundaki, davlatimiz rahbari doimo o‘tganlar, ayniqsa, el-yurt manfaatlari yo‘lida jonini tikkanlar ruhiga ehtirom haqida gapiradi, bu borada muhim vazifalarni belgilab beradi. Qatag‘on qurbonlari xotirasini abadiylashtirish bo‘yicha muhim tashabbuslarning muntazam ilgari surilayotgani ham bejiz emas. Bizningcha, avvalo, bunday tashabbuslarning ahamiyatini chuqur tushunishimiz, qalbdan his qilishimiz zarur. Zotan, ko‘plab millat va elatlar qatori xalqimiz ham yaqin o‘tmishdagi mustamlakachilik davrida sodir etilgan keng ko‘lamli mudhish qatag‘onni ilgari hech qachon ko‘rmagan. Bu davrdagi qatag‘onlarning fojiali jihatlaridan biri ham shundaki, mustabid tuzumning tig‘i birinchi galda millatimizning eng sara, ziyoli, noyob iste’dodli, hur fikrli, xalqparvar, erksevar farzandlari ko‘ksiga qadaldi. Ularning yagona aybi millati va yurtini haddan ziyod sevishi, uning erkin va farovon yashashini orzu qilishi edi. Binobarin, ular xotirasini abadiylashtirishga e’tibor ham hikmatdan xoli emas. Zero, bugun dunyoning turli nuqtalarida o‘sha davrlarni qo‘msaydigan guruhlar paydo bo‘lmoqda, mustabid tuzum uslublarini ideallashtirishga intilish kuchaymoqda, qatag‘on kampaniyalari tepasida turganlarning nomlari gohi oshkora, gohida pinhona “hurmat” bilan tez-tez tilga olinmoqda.

Xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz shahid ketgan ajdodlarimiz hayoti va faoliyati misolida haqiqatni anglab yetmasa, bugungidek erkin hayotning qadrini to‘liq anglamasligi, turli fitnalarning navbatdagi qurboni bo‘lishi mumkin. Shu bois qatag‘on qurbonlari xotirasini yod etish va ularning mustaqilligimiz yo‘lidagi harakatlarini, orzu-armonlarini keng targ‘ib qilish ishlari umummilliy harakatga aylanishi zarurligi ta’kidlanmoqda.

Darhaqiqat, qatag‘onning dahshatli soyasi tushmagan biror soha, tarmoq yoki mahalla qolmagan. E’tibor bering: sho‘rolar qatag‘onlarining dahshatli davrida minglab begunohlar qatorida prokuratura tizimi vakillari ham ko‘plab musibatlarga duchor bo‘ldi.

Ori va nomusini har narsadan ustun qo‘yib, nohaqliklarga qarshi borgan, qat’iyat ko‘rsatgan, chin ma’noda dovyurak va vatanparvar mahalliy xodimlarning qariyb 200 nafariga jinoyat ishi qo‘zg‘atilgan, 30 nafari esa otib tashlangan. Alamlisi shundaki, qatag‘onga uchraganlarning aksariyati nafaqat sud-huquq tizimining fidoyi vakillari, balki el-yurt taqdiri uchun kuyungan, uning saodati yo‘lida borini berishga tayyor bo‘lgan millatimizning sadoqatli, salohiyatli, noyob iste’dodli farzandlari edi.

Jumladan, 1920 – 1924-yillarda Buxoro Xalq sovet respublikasi adliya xalq noziri va respublika prokurori bo‘lib ishlagan Abdurahim Yusufzoda taraqqiyparvarlarning “Yosh buxoroliklar” yetakchilaridan biriga aylangan. Uning tashabbusi bilan Buxoro shahrida 3 ta sud binosi barpo etilgan, sudlov organlarida birinchi bor apellyatsiya organi – “Taniz mahkamasi” (“Arz mahkamasi”) tashkil etilgan, sudyalarni olim, fozil, nasl-nasabli nomzodlardan saralab tayinlash yo‘lga qo‘yilgan, tarixiy-me’moriy obidalardan hibsxona sifatida foydalanish amaliyotiga barham berilib, ular qayta tiklanib, Buxoro madaniyat muzeyiga aylantirilgan.

Aynan Abdurahim Yusufzodaning sa’y-harakatlari bilan 1924-yilda Moskvada rus va o‘zbek tilida “Buxarskaya jizn” nomli jurnal hamda O‘zbekistondagi ilk kinostudiya – “Buxoro – Rus kinojamiyati” tashkil etilgan.

Abdurahim Yusufzoda 1924-yilda Rossiya havo floti – “Dobrolyot” bilan shartnoma imzolab, Buxoro – Xiva – Toshkent – Olmaota yo‘nalishlarida havo qatnovi va pochtani yo‘lga qo‘ygan, “Yunkers” firmasidan 6 ta samolyot xarid qilinishiga erishgan. Afsuski, u 1936-yilda NKVD xodimlari tomonidan hibsga olingan va 1937-yilda otuvga hukm etilgan.

Qatag‘on yillarida nohaq ayblangan yana bir prokuror Mirzo Qo‘qonboy Abduxoliqzoda arab, fors, rus va turk tillarini mukammal bilgan. U 1916-yilda Jizzax qo‘zg‘oloni qatnashchilari ustidan sud jarayonida 30 dan ortiq jizzaxliklarni o‘limdan saqlab qolgan.

O‘zbekiston Adliya xalq komissarligi huzuridagi prokuraturaning tergovchisi, Zarafshon okrugi katta tergovchisi, Buxoro prokuraturasi tergovchisi lavozimlarida ishlagan Mirzo Qo‘qonboy Abduxoliqzodaning uyida jadidlar, Vadud Mahmud, Cho‘lpon, Munavvarqori Abdurashidxonov kabi ma’rifatparvarlar tez-tez uchrashib turishgani, el-yurt qayg‘usi ularni birlashtirgani haqida ham ma’lumotlar bor.

Darvoqe, Mirzo Qo‘qonboy Abduxoliqzoda nafaqat prokuror, balki yetuk olim, ziyoli ham bo‘lgan, deyish mumkin. Zotan, u “Jizzax qo‘zg‘oloni”, “Namoz shaykasi”, “Tog‘ qizi”, “Istadjon”, “Qamchindan qon tomadi” kabi tarixiy voqealarga boy roman, qissa, hikoya va ocherklar yozgan, rus tilidan biologiya, antropologiya, zoologiya, botanika darsliklarini o‘zbek va tojik tillariga tarjima qilgan...

Umuman olganda, qatag‘onga uchragan o‘nlab xodimlar davlat va siyosat arbobi darajasiga yetgan edi. Bugungi kunda ular haqida zalvarli kitoblar, kalendar taqvim yaratildi, shuningdek, har biri bo‘yicha alohida monografiya va hujjatli filmlar tayyorlanmoqda.

Qatag‘onga uchragan xodimlarning oilasi va boshqa yaqin kishilari ro‘yxati tuzildi. Hozirda ularning ijtimoiy ahvolini o‘rganish, ko‘cha, mahalla va maktablarga qatag‘on qilinganlarning nomlarini berish hamda yodgorlik lavhalari o‘rnatish ishlari olib borilmoqda.

Bundan tashqari, Bosh prokuraturaning “O‘zbekiston prokuraturasi tarixi muzeyi”da alohida burchak ajratilib, unda qatag‘onga uchragan prokuratura xodimlarining ma’lumotlari va tegishli tarixiy ko‘rgazmalar joylashtirildi. Prokuratura tizimida ishlab, nohaq ayblangan va qatag‘on qilinganlarga oid bunday ma’lumotlar ko‘p ekanini o‘zimiz ham yaqinda anglab yetdik. Asosiysi, har birining tarjimayi holi bugungi jamiyatimiz uchun ham muhim ahamiyatga ega bo‘lgan yorqin sahifalarga boy.

Qayd etish o‘rinliki, bir maqola yoki tadqiqot doirasida qamrab olish imkonsiz bo‘lgan bugungi jarayonlarning mohiyatini, xayrli jihatlarini osongina ta’riflab bo‘lmaydi. Ayniqsa, bir begunohni oqlash o‘tmishni shunchaki qayta yozish emas. Oqlov inson qadr-qimmatini tiklash, qonunsizlikning oqibatlarini tan olish va jamiyatda adolat mezonlarini mustahkamlashdir. O‘z navbatida, qatag‘on qurbonlarining nomini tiklash orqali ularning avlodlariga ham tarixiy haqiqat qaytarilmoqda.

Shu bois so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan oqlov jarayonlarini xalqimizning tarixiy xotirasini tiklash yo‘lidagi muhim voqea sifatida baholash mumkin. Bu jarayon har bir insonning huquqi, sha’ni va qadr-qimmati daxlsiz ekanini yana bir bor namoyon etadi.

Oqlangan har bir inson tarixning bir tiklangan sahifasidir. Har bir tiklangan nom esa xalq xotirasidagi bir adolatsizlikning bartaraf etilganidan dalolat. Shu ma’noda, qatag‘on qurbonlarining oqlanishi nafaqat ularning, balki butun jamiyatimizning tarixiy adolati tantanasi, desak, ayni haqiqat.

Nig‘matilla YO‘LDOSHEV,
O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori.

SHAHARSOZLIK VA RIVOJLANISHNING ZAMONAVIY MODELI

1 Ayniqsa, loyihada “yashil” qurilish standartlari, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, chiqindilardan elektr energiyasi olish va keng yashil hududlar tashkil etilishiga alohida e’tibor qaratilayotgani diqqatga sazovor. Zamonaviy shaharning qiyofasi baland binolar yoki yo‘llar bilangina emas, havo sifati, energiya samaradorligi, piyodalar uchun qulaylik va aholi salomatligiga yaratilgan sharoitlar bilan ham belgilanadi. Shu bois Yangi Toshkentda ekologik yondashuvlarni qurilishning dastlabki bosqichidanoq hisobga olish kelajakdagi shahar muhitining barqarorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Prezidentimiz tomonidan investorlar uchun qulay sharoit yaratish, ruxsat berish jarayonlarini soddalashtirish, infratuzilma to‘lovlarini kamaytirish va yirik loyihalarga mas’ullarni biriktirish bo‘yicha belgilangan vazifalar g‘oyatda muhim. Chunki xususiy sektorning faol ishtiroki yangi ish o‘rinlari yaratish, xizmatlar sifatini oshirish va shaharning iqtisodiy salohiyatini kengaytirish imkonini beradi.

Shu bilan birga, investitsiyalarni jalb qilish jarayonida loyihalarning sifati, jamoatchilik manfaatlari va belgilangan shaharsozlik talablariga



rioya etilishi muhimligini unutmaslik kerak. Xususan, uy-joylar bilan bir qatorda maktablar, bog‘chalar, shifoxonalar, dam olish maskanlari va jamoat transportining o‘z vaqtida ishga tushirilishi aholi uchun haqiqiy qulaylikni ta’minlaydi. Yangi hududning poytaxt bilan transport aloqalarini rivojlantirish ham uning kundalik hayotdagi samaradorligini belgilaydi.

Yangi Toshkentda amalga oshirilayotgan ishlardan ko‘zlangan asosiy maqsad zamonaviy binolar barpo qilish bilangina cheklanmasdan, odamlar yashashi, ishlashi, ta’lim olishi va mazmunli dam olishi uchun yaxlit muhit yaratishdir. Shu ma’noda, bu loyiha shaharsozlik, investitsiya, ekologik barqarorlik va aholi turmush sifati o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash nuqtayi nazaridan ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Gulnora MA’RUPOVA,
Oliy Majlis Senati a’zosi.

BUNYODKORLIK SALOHIYATI MUJASSAM KENT

1 Hududda 2 ming gektar yashil maydon va 500 gektar istirohat bog‘lari, “yashil qurilish standartlari” asosida 150 mln. kvadrat metr turar va noturarjoy maydonlari barpo qilinishi rejalashtirilgani aholi uchun qulay yashash muhitini yaratish, ekologik muvozanatni saqlash hamda shaharning zamonaviy qiyofasini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.



E’tibor beradigan bo‘lsak, o‘tgan davr mobaynida Yangi Toshkentda 2 mlrd. dollarlik qurilish-bunyodkorlik ishlari amalga oshirilib, zamonaviy turarjoylar, universitetlar, kutubxona va amfiteatr barpo etildi. Shuningdek, umumiy qiymati 1 mlrd. dollar bo‘lgan 7 obyektning ishga tushirilishi hududni rivojlantirish yo‘lidagi muhim natijalardan biri bo‘ldi.

Xorijiy hamkorlar bilan birgalikda amalga oshirilayotgan loyihalar ham alohida e’tiborga loyiq. Jumladan, Turkiyaning “MIMSAN” kompaniyasi ishtirokida barpo etilgan trigeneratsiya stansiyasi 100 ming xonadonni markazlashgan tarzda isitish va sovitish, shu bilan birga, elektr energiyasi ishlab chiqarish imkonini beradi. Bu kabi zamonaviy texnologiyalar energiya resurslaridan samarali foydalanish hamda aholiga sifatli kommunal xizmatlar ko‘rsatishda muhim o‘rin tutadi.

Bu hali hammasi emas. Yangi Toshkentda 18 km. avtomobil yo‘li barpo etilib, 13 km. kanalizatsiya hamda 4,5 km. ichimlik suvi tarmoqlari tortildi. Qirg‘oq bo‘ylab 10 km. uzunlikdagi “Sohil bog‘i”da piyodalar va velosiped yo‘laklari tashkil etildi. “Sharq bahori” turarjoy majmuasining birinchi bosqichida qariyb 7 mingta xonadon qurildi. Albatta, bunday infratuzilma obyektlari aholi uchun qulaylik yaratish, harakatlanish imkoniyatlarini kengaytirish va turmush sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Hududda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli bunyodkorlik ishlari yurtimiz taraqqiyoti yo‘lidagi muhim qadamdir. Zero, bunday yirik loyihalar nafaqat poytaxtimiz, balki butun mamlakatimiz iqtisodiy salohiyatini yuksaltirish, aholi bandligini ta’minlash, yangi ish o‘rinlarini yaratish va xalqimiz turmush farovonligini oshiradi.

Galiya RAYXANOVA,
Tadbirkorlik, raqobatni rivojlantirish va sanoat masalalari qo‘mitasi a’zosi:



– Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Yangi Toshkentga tashrifi, yirik loyihalarni amalga oshirayotgan investorlar va tadbirkorlar bilan ochiq muloqoti, shuningdek, yangi obyektlarning foydalanishga topshirilishi hamda navbatdagi loyihalar qurilishiga start berilishi ushbu hududdagi bunyodkorlik ishlarining ko‘lami hamda istiqbolini yaqqol namoyon etdi. Bu jarayonlar nafaqat yangi ishlab chiqarish quvvatlari va zamonaviy infratuzilmani yaratish, balki yangi ish o‘rinlari tashkil etish, tadbirkorlikni rivojlantirish va aholi farovonligini oshirishda ham muhim ahamiyatga ega.

Davlatimiz rahbari uchrashuvda investorlar uchun shart-sharoitlarni yaxshilashga oid muhim vazifalarni belgiladi. Jumladan, yer ajratishdan loyihani ishga tushirishgacha bo‘lgan jarayonni qayta ko‘rib chiqish, investor kutib o‘tirmasligi uchun ruxsat berish tartiblarini soddalashtirish zarurligi ta’kidlandi. Yangi shahar uchun jami 20 ming gektar yer ajratilgan bo‘lsa-da, tadbirkorlarga atigi 94 gektar berilgani tanqidiy ta’kidlandi. Har bir tuman va hududga Yangi Toshkentdan 100 gektardan yer ajratilishi, mehmonxona va turistik obyektlar uchun infratuzilma to‘lovlari 5 barobar, madaniy va ko‘ngilochar obyektlar uchun 10 barobar kamaytirilishi, jahonning yetakchi me’morlari loyihalari uchun esa loyihalash, qurilish va qabul qilishning tezlashtirilgan tartibi joriy etilishi belgilandi.

Xalqaro amaliyotdan ma’lumki, ish funksiyalarini shahar markazidan tashqariga ko‘chirish katta shaharlardagi zichlik va tirbandlikni kamaytirishga, hududlar rivojini muvozanatlashtirishga xizmat qilishini ko‘rsatadi. Qurilish materiallari, metall, elektrotexnika va boshqa sanoat tarmoqlari mahsulotiga bo‘ladigan talab mahalliy korxonalar uchun ham yangi imkoniyatlar yaratadi.

Yangi Toshkentda boshlangan har bir loyiha yangi ish o‘rinlari, zamonaviy ishlab chiqarish va yurtdoshlarimiz farovonligiga xizmat qilishiga ishonamiz.

“Xalq so‘zi”.

UMUMIY TARAQQIYOT UFQLARI

O‘zbekiston, Rossiya, Belarus, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston, Ozarbayjon va Armaniston rahbarlari hamda Eron Prezidenti ishtirokida Turkmanistonda tashkil etilgan MDH sammiti har jihatdan samaradorligi bilan yodda qoladigan bo‘ldi.

Hamkorlik

Chunki tadbirda davlatlararo aloqalarni yangi bosqichga olib chiqadigan 15 ta hujjat imzolandi. Qolaversa, tashrif davomida O‘zbekiston va Turkmaniston o‘rtasida Strategik sheriklik bo‘yicha Oliy kengash tuzish to‘g‘risida shartnoma tuzildi.

Sammitda Prezidentimiz tomonidan MDHga a’zo davlatlar orasidagi aloqalarni kuchaytirishga oid qator takliflar ilgari surildi. Jumladan, sanoat kooperatsiyasini kengaytirish va o‘zaro tovar ayirboshlash yo‘lidagi sun’iy to‘siqlarni olib tashlash, xomashyo resurslari, ishlab chiqarish quvvatlari hamda keng bozor salohiyatini birlashtirgan holda ishlab chiqarish zanjirlari va qo‘shma korxonalar barpo etish zarurligi alohida qayd etildi.



Bundan tashqari, mamlakatimiz yetakchisi Markaziy Osiyoning Sharq va G‘arb, Shimol va Janubni bog‘lashdagi geostrategik ahamiyatini inobatga olib, tranzit tizimiga doir tartib va tamoyillarni tubdan soddalashtirish, xavfsiz va maqbul logistika yo‘laklarini shakllantirish kerakligini ta’kidladi. Sohaviy organlar salohiyatini oshirish, kuchlarni birlashtirish orqali terrorizm, ekstremizm va kiberjinoyatlarga qarshi kurashish hamda MDH makonida talabalar, olimlar va mutaxassislarning ilmiy hamkorligini jonlantirish masalalariga ham urg‘u qaratildi.

Yana muhim yangiliklardan biri – 2027-yil 1-yanvardan boshlab MDHga raislik O‘zbekistonga o‘tadi. Va Hamdo‘stlikning navbatdagi rasmiy sammiti kelasi yili 8-9-oktyabr kunlari Buxoroda tashkil etiladi. Mazkur jihat mamlakatimizning xalqaro maydondagi nufuzini hamda global diplomatik markaz sifatidagi maqomini mustahkamlaydi. Chunonchi, raislik doirasida 100 dan ortiq yirik iqtisodiy, siyosiy va gumanitar tadbirlar uyushtiriladi.

Eng asosiysi, bu jarayon O‘zbekistonning milliy va iqtisodiy manfaatlarini xalqaro darajada muvaffaqiyatli ilgari surish uchun keng imkoniyatlar eshigini ochadi. Ma’lumot o‘rnida aytish joizki, O‘zbekistonning Hamdo‘stlikka raisligi “MDH – ishonch va umumiy taraqqiyot makoni” shiori ostida amalga oshiriladi.

Demak, endilikda MDH hududida iqtisodiy kooperatsiya, yuqori texnologiyalar, transport-logistika, xavfsizlik, inson kapitalini rivojlantirish, noyob minerallar, sun’iy intellekt, robotlashtirish, zamonaviy energetika kabi istiqbolli sohalarni rivojlantirishga qaratilgan islohotlar sur’ati yanada jadallashadi. Tabiiyki, bu sa’y-harakatlar mamlakatimizni har tomonlama taraqqiy ettirish, xalqimizning hayot farovonligini oshirish va barqaror kelajakni ta’minlashga xizmat qiladi.

Nusuratullo PARDAYEV,
Oliy Majlis Senati a’zosi.

Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi xabariga ko‘ra, joriy yilning 16-oktyabridan boshlab ichki yo‘nalishlarda aviachiptalar narxlari o‘rtacha 20 foizgacha arzonlashtiriladi.

MINTAQA RAVNAQIDA HAMJIHATLIK

Turkmanistonning “Avaza” milliy sayyohlik zonasida bo‘lib o‘tgan Markaziy Osiyo va Ozarbayjon davlat rahbarlarining sakkizinchi Maslahat uchrashuvi mintaqaviy birdamlik hamda strategik sheriklik tarixida yangi sahifa ochdi. Sammitda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev nutq so‘zlab, mintaqani global iqtisodiy faollik markaziga aylantirishga qaratilgan konseptual va tizimli tashabbuslarni ilgari surdi.

Munosabat

Davlatimiz rahbari o‘z nutqida so‘nggi yillarda Markaziy Osiyodagi munosabatlar muhiti tubdan o‘zgarganini alohida e’tirof etdi. Bugungi kunda mintaqa yetakchilari tez-tez uchrashib, eng murakkab masalalarni ham ochiq muhokama qilmoqda, birgalikda samarali yechimlar topib, bir-birlarini xalqaro maydonda faol qo‘llab-quvvatlamoqda. Bu izchil yaqinlashuvning huquqiy va tarixiy asosi sifatida “XXI asrda Markaziy Osiyoni rivojlantirish maqsadida do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik va hamkorlik to‘g‘risida”gi shartnomani amaliyotga tatbiq etish jarayonlari yakunlangani tarixiy voqea bo‘ldi. Buning natijasida Markaziy Osiyo xalqaro maydonda ishonchli subyekt sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Prezidentimiz sammitda Maslahat uchrashuvlari faoliyatini tartibga soladigan normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish va tizimli izga solish bo‘yicha ishlarni davom ettirishni taklif qildi. Iqtisodiy hamkorlikni sifat jihatdan mutlaqo yangi darajaga ko‘tarish vaqti kelganini ta’kidladi.

Mamlakatlarimiz o‘zaro savdo va investitsiyalar hajmini keskin oshirish bo‘yicha jiddiy maqsadlar qo‘yishgan. Endilikda ushbu o‘sishni aniq qaysi drayverlar hisobiga ta’minlashni belgilab olish zarur. Bu borada O‘zbekiston yetakchisi tomonidan ikkita strategik taklif ilgari surildi.

Birinchisi, 2035-yilgacha mo‘ljallangan savdo-iqtisodiy hamkorlik bo‘yicha keng qamrovli mintaqaviy das-tur. Bu hujjat umumiy jug‘rofiy ustunliklarimizdan samarali foydalanishga yordam beradigan amaliy vosita bo‘lishi kerak.



Ikkinchisi, davlatlar o‘rtasidagi oddiy savdo-sotiq bosqichidan o‘tib, qo‘shimcha qiymat zanjirlarini yaratish va birgalikda tayyor, raqobatbardosh yakuniy mahsulot ishlab chiqarish zarur. Prezidentimiz ushbu strategik maqsadni “Olti iqtisodiyot – bitta mahsulot” formulasi orqali juda aniq ifodalab, ushbu tizimli aloqalarni amalda rivojlantirish maqsadida 2027-yilda qadimiy Xiva shahrida Markaziy Osiyo va Ozarbayjon biznes forumini o‘tkazishni taklif etdi.

Mintaqadagi qo‘shma investitsiya loyihalarini moliyaviy-texnik jihatdan qo‘llab-quvvatlash uchun maxsus moliyaviy platforma yaratish zarurligi ta’kidlandi. Bu yirik sanoat va infratuzilma loyihalarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri moliyalashtirish imkonini beradi. Jug‘rofiy joylashuv Markaziy Osiyoga global savdoning quruqlikdagi eng muhim tranzit yo‘nalishiga va iqtisodiy faollikning yirik markaziga aylanish imkonini beradi. Bu jarayonda transport koridorlari, temir yo‘l va portlar infratuzilmasini muvofiqlashtirilgan holda rivojlantirish lozim. Davlatimiz rahbari mazkur harakatlarni yagona markazdan boshqarish va tezlashtirish uchun maxsus Infratuzilmaviy rivojlanish bo‘yicha kengash tuzishni taklif qildi hamda uning birinchi ta’sis yig‘ilishini O‘zbekistonda o‘tkazishga tayyorligini bildirdi.

Avaza sammitida ilgari surilgan tashabbuslar Markaziy Osiyo va Ozarbayjonning yaqin o‘n yillikdagi taraqqiyotini belgilab beruvchi puxta ishlangan dasturdir. “Olti iqtisodiyot – bitta mahsulot” tamoyili ostida birlashgan mintaqa nafaqat o‘z ichki bozorini himoya qiladi, balki global iqtisodiy tizimda mustaqil va qudratli kuch sifatida o‘z so‘zini ayta oladi. O‘zbekiston taklif etayotgan ushbu integratsion model barcha ishtirokchi davlatlarning suveren taraqqiyoti va xalqlarimiz farovonligiga xizmat qilishi muqarrar.

Ayni chog‘da bu tashabbuslar mintaqaviy hamkorlikni nafaqat savdo-sotiq, balki ekologik xavfsizlik, yuqori texnologiyalar va kelajak mehnat bozori kabi muhim sohalarda yangi sifat bosqichiga olib chiqadi. Prezidentimiz o‘z nutqida bugungi kunda erishilgan natijalarni mustahkamlash hamda hamkorlikni yaqin o‘n yilliklar uchun barqaror qilish zarurligini ta’kidladi: “Formula oddiy: taraqqiyot va xavfsizlik yo‘lida birdamlik va ishonch”.

Iqlim o‘zgarishi hamda global isish sharoitida Markaziy Osiyo va Ozarbayjon uchun energetika hamda suv resurslari hayotiy ahamiyatga ega. Davlatimiz rahbari bu borada qator kechiktirib bo‘lmas tashabbuslarni e’lon qildi. Mintaqada yangi ishlab chiqarish quvvatlarini qurish, energiyani saqlashning zamonaviy tizimlarini rivojlantirish va yangi energetika yo‘laklarini yaratishni muvofiqlashtirish maqsadida maxsus qo‘shma konsepsiya tayyorlash taklif etildi.

Markaziy Osiyoda suv resurslaridan oqilona va tejamkor foydalanish bo‘yicha “Amaliy chora-tadbirlar o‘n yilligi” tashabbusini to‘liq hamda tizimli amalga oshirish muhimligi ham aytildi. Bundan tashqari, Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasi faoliyatini isloh qilish ustuvor vazifalardan biri ekani ta’kidlandi. O‘zbekiston jamg‘armaga raislik davridan uning ishini yanada samarali tashkil etish, yangi ekologik loyihalarni ishga tushirish va qo‘shimcha moliyaviy mablag‘larni faol jalb qilish uchun maksimal darajada foydalanish niyatida. O‘zbekiston yetakchisi suv resurslaridan foydalanish masalalari bo‘yicha Afg‘oniston bilan muloqotga alohida e’tibor qaratish tarafdori. Bu muloqot doimiy va aniq mazmunga ega bo‘lishi hamda mintaqadagi barcha mamlakatlarning manfaatlarini majburiy tarzda hisobga olishi shart.

XXI asr iqtisodiyoti yuqori texnologiyalar va raqamlashtirishga asoslangan. Bu esa noyob yer elementlari va muhim foydali qazilmalarga talabni geometrik progressiyada oshirmoqda. Shu sababli, muhim minerallar bo‘yicha mintaqaviy alyans tuzilishi foydadan xoli emas. O‘zbekiston tomonidan ilgari surilgan ushbu tashabbus doirasida ishlarni faollashtirish taklif qilindi. Bu yo‘ldagi birinchi qadam sifatida Markaziy Osiyoning muhim minerallar zaxiralarining yagona raqamli xaritasini yaratish lozimligi aytildi. Bu tashqi investorlar uchun shaffof va jozibador tizimni taqdim etadi.

Shuningdek, sun’iy intellekt uchun poydevor bo‘lgan umumiy hisoblash infratuzilmasini barpo qilish mintaqamiz davlatlari taraqqiyoti uchun muhim sanaladi. Zamonaviy texnologiyalar, sun’iy intellekt va “Katta ma’lumotlar” (Big Data) bilan ishlash uchun mintaqa davlatlarining texnik imkoniyatlarini birlashtirish va umumiy hisoblash infratuzilmasini yaratishni boshlash fikri bildirildi. Bu mintaqa yoshlarining global raqamli iqtisodiyotda raqobatbardoshligini ta’minlaydi. Zero, iqtisodiy integratsiya va sanoat kooperatsiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun kuchli kadrlar bazasi kerak.

Qolaversa, talab yuqori bo‘lgan kasblar hamda kompetensiyalarning mintaqaviy atlasini yaratish taklif etildi. Ushbu yangi platforma orqali bugungi kunda mutaxassislar tanqisligi sezilayotgan va yaqin yillarda talab ortib boradigan yo‘nalishlar bo‘yicha mamlakatlarning prog-noz ma’lumotlari birlashtiriladi. Bu oliy ta’lim va professional ta’lim muassasalari dasturlarini real iqtisodiyot talablariga moslashtirish imkonini beradi.

Prezidentimizning mazkur tarixiy nutqi nafaqat bugungi kun muammolarini hal etishga, balki uzoq istiqbolga – kelajak avlodlar taqdiriga qaratilgan fikrlar bilan yakunlandi: “Biz kelgusi avlodlarga qanday mintaqa qoldirishimiz uchun javobgarmiz. U tinch, xavfsiz, iqtisodiy jihatdan kuchli bo‘lishi va odamlarga munosib yashash, mehnat qilish, o‘qish hamda farzandlarni voyaga yetkazish imkoniyatlarini berishi kerak”. O‘zbekiston yetakchisi taklif etgan ushbu tizimli yondashuvlar Markaziy Osiyo va Ozarbayjonni nafaqat tinchlik hamda hamkorlik makoniga, balki global miqyosda innovatsiyalar, “yashil” taraqqiyot va yuksak inson kapitali markaziga aylantiradi.

Feruza MADRAHIMOVA,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti rektori, pedagogika fanlari doktori, professor.

Эътироф

ЎЗБЕК ДАСТУРЧИСИ – ХАЛҚАРО ТАНЛОВ ҒОЛИБИ

Шу йилнинг 5 — 7 октябрь кунлари Индонезиянинг Жакарта шаҳрида нуфузли “ASOCIO Digital & AI Awards 2026” тадбирлари бўлиб ўтди.



O‘ZBEK DASTURCHISI – XALQARO TANLOV G‘OLIBI

Shu yilning 5 – 7-oktyabr kunlari Indoneziyaning Jakarta shahrida nufuzli “ASOCIO Digital & AI Awards 2026” tadbirlari bo‘lib o‘tdi.

E’tirof

Unda Osiyo-Okeaniya mintaqasining raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt sohasidagi yetakchi mutaxassislari ishtirok etdi.

Quvonarlisi shundaki, mazkur anjumanda farg‘onalik dasturchi Muhammadqodir Abduvoitov tomonidan yaratilgan “Braille Recognition” startapi yuksak e’tirofga sazovor bo‘ldi.

PARIJDA YANGRAGAN UCHINCHI RENESSANS SADOSI

O‘zbekistonning buyuk sivilizatsiya merosi YUNESKO minbaridan jahonga namoyish etildi. Ikki kunlik xalqaro anjumanlar esa Sharq va G‘arb o‘rtasidagi ko‘p asrlik ilmiy-madaniy muloqotning yangi sahifasini ochdi.

Buyuk sivilizatsiyalar merosini asrab-avaylash, uni ilmiy asosda o‘rganish va jahon hamjamiyatiga yetkazish O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ilgari surayotgan ma’naviy-ma’rifiy islohotlarning muhim yo‘nalishlaridan. Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan bunyod etilgan O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazini YUNESKO, BMT tizimidagi boshqa nufuzli xalqaro maydonlarda, dunyoning yetakchi davlatlari ilmiy va madaniy markazlarida keng taqdim etish ham ana shu ezgu maqsadlarga xizmat qiladi.

Fransiya poytaxti Parijda 7-8-oktyabr kunlari o‘tkazilgan yirik xalqaro tadbirlar O‘zbekistonning boy tarixiy, ilmiy va ma’naviy merosiga bag‘ishlangan muhim muloqot maydoniga aylandi.

Taassurot

Movarounnahrdan Sena sohillarigacha

Parij sayyoramizning eng yirik diplomatiya va madaniyat markazlaridan biri sifatida alohida mavqega ega. Shu bois O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi taqdimotining aynan Parij shahrida o‘tkazilishi chuqur ramziy ma’noga ega. Zero, bu safar ming yillar davomida Sharq ilmiy tafakkurini yuksaltirgan buyuk allomalar merosi G‘arbning yirik ma’rifat minbarlaridan birida yana bir bor yangradi.

Ikki kunlik tadbirlarda Fransiyaning taniqli olimlari, yetakchi ilmiy muassasalar vakillari, universitetlar professor-o‘qituvchilari, talabalar, muzey va kutubxona mutaxassislari, diplomatik korpus hamda xalqaro tashkilotlar rahbarlari faol ishtirok etdi.

YUNESKO bosh qarorgohida “Islom sivilizatsiyasi: Movarounnahrning buyuk ma’naviy va ilmiy merosi hamda ma’rifat ufqlari” mavzuida xalqaro anjuman va O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazining maxsus taqdimoti bo‘lib o‘tdi.

Nufuzli anjumanda markaz direktori, O‘zbekiston madaniy merosini o‘rganish, saqlash va ommalashtirish bo‘yicha Butunjahon jamiyati boshqaruvi raisi Firdavs Abduxoliqov boshchiligidagi delegatsiya qatnashdi.

O‘zbekiston hududida shakllangan buyuk ilmiy maktablar, musulmon Sharqining jahon tamadduniga qo‘shgan hissasi hamda yurtimizda bu bebaho merosni tadqiq etish borasida amalga oshirilayotgan ishlar anjuman ishtirokchilarining diqqat markazidan joy oldi.

O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi haqida taqdim etilgan ma’lumotlar, namoyish qilingan filmlar, videoroliklar qatnashchilarda alohida qiziqish uyg‘otdi. Markaz muzey ekspozitsiyalari, boy qo‘lyozmalar va kitoblar xazinasi, ilmiy tadqiqotlar, xalqaro hamkorlik loyihalari, raqamli texnologiyalar va ma’rifiy tashabbuslarni birlashtirgan ilmiy-madaniy majmua sifatida shakllantirilgan.

Ilmiy-madaniy meros – sivilizatsiyalar o‘rtasidagi ko‘prik

Parij anjumanida bildirilgan mulohazalar O‘zbekistonda kechayotgan ma’rifiy jarayonlarga xalqaro hamjamiyatning qiziqishi muntazam ortib borayotganidan darak berdi. Xususan, ICESCO bosh direktori Salim al-Malik o‘z ma’ruzasida islom tamadduni tinchlik, birodarlik, madaniyat va ilm-fan sivilizatsiyasi ekanini alohida ta’kidladi.

– Madaniy meros xalqlar, avlodlar va sivilizatsiyalar o‘rtasida ko‘prik vazifasini bajaradi. Ilm-fan hamda ta’limga tayangan hamkorlik esa turli madaniyat va jamiyatlar o‘rtasida o‘zaro anglashuvni mustahkamlaydi. Bu borada O‘zbekiston rahbari muhtaram Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan ishlar diqqatga sazovor, – dedi u.

IRCICA bosh direktori, professor Mahmud Erol Qilich esa “Ma’naviy meros, tafakkur uyg‘onishi va zamonaviy taraqqiyot” nomli ma’ruzasida tavalludining 690-yilligiga bag‘ishlangan xalqaro ilmiy anjuman bo‘lib o‘tdi.

Tarix sahifalariga nazar tashlasak, Amir Temurning Yevropa davlatlari bilan aloqalari orasida Fransiya alohida o‘rin tutganiga guvoh bo‘lamiz. Sohibqiron bilan Fransiya qiroli Karl VI o‘rtasida diplomatik yozishmalar olib borilgani ma’lum. Bu maktublar bir-biridan minglab chaqirim uzoqda joylashgan ikki siyosiy kuch o‘rtasidagi munosabatlardan darak beruvchi tarixiy hujjatlardir. Ular O‘rta asrlardayoq Sharq va G‘arb o‘rtasida faol diplomatik aloqalar mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi.

Fransiyada Amir Temur va temuriylar tarixini o‘rganishning o‘ziga xos ilmiy an’analari shakllangan. Anjumanda bu yo‘nalishda uzoq yillardan buyon izlanish olib borayotgan taniqli fransuz olimlari ishtirok etdi.

Jumladan, Temuriylar san’ati va tarixi assotsiatsiyasi prezidenti Frederik Bopertyui-Bressan Amir Temurning san’at va madaniyat homiysi sifatidagi faoliyati haqida ma’ruza qildi. Uning bu boradagi ko‘p yillik mehnati alohida e’tiborga molik. O‘tgan asrning 80-yillaridan buyon temuriylar merosini targ‘ib etishga hissa qo‘shib kelayotgan tadqiqotchi “Temuriylar” jurnali orqali ham Fransiya ilmiy jamoatchiligida ushbu mavzuga qiziqish uyg‘onishiga hissa qo‘shgan. Anjumanda O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi



tarixiy tajriba va ma’naviy qadriyatlarga bugungi dunyo ehtiyojlari nuqtayi nazaridan yondashish muhimligini qayd etdi.

Italiyaning Milan Dizayn universiteti professori Mario Taddeining Xorazmiy, Ibn Sino, Beruniy singari buyuk allomalarning Yevropa uyg‘onish davri, ayniqsa, Leonardo da Vinchi kashfiyotlariga katta turtki bergani haqidagi ma’ruzasi ham yig‘ilganlarda katta qiziqish uyg‘otdi.

Parijdagi taqdimot O‘zbekistonning tarixiy merosini namoyish etish bilan birga, jahon ilm-fani taraqqiyotida mamlakatimiz tutgan muhim o‘rinni qayta anglashga chorlagan xalqaro voqeaga aylandi.

Olti asrlik tarixga ega diplomatik muloqot

Parijdagi tadbirlarning ikkinchi kuni – 8-oktyabrda O‘zbekiston Respublikasining Fransiyadagi elchixonasida sohibqiron Amir Temur tomonidan mazkur nashrning o‘ttiz yil davomida chop qilingan sonlarini jamlab, alohida to‘plam shaklida nashr etish rejasi ma’lum qilindi.

Shuningdek, Parijdagi Sharq tillari va sivilizatsiyalari milliy instituti – “INALCO” professori Katrin Pujol ispan elchisi Rui Gonsales de Klavixoning mashhur safarnomasi yuzasidan chiqish qildi. Ma’lumki, Klavixo XV asr boshlarida Samarqandga kelib, Amir Temur saroyidagi hayot, qabul marosimlari, shaharning qiyofasi va odamlarning urf-odatlari haqida qimmatli ma’lumotlar qoldirgan. Bugun bu safarnoma tarixchilar uchun o‘sha davr hayotini tasavvur qilish imkonini beruvchi muhim manbalardan biri sanaladi.

Shu tariqa bir anjumanda Amir Temur shaxsiyatiga turli ilmiy maktablar nigohidan yondashildi: tarixchi uchun u – davlat arbobi, sharqshunos uchun – tarixiy manbalar markazidagi shaxs, san’atshunos uchun – madaniyat homiysi, diplomatiya tadqiqotchisi uchun esa Sharq va G‘arb



aloqalari tarixidagi muhim siymo. Muloqotning ana shu ko‘p qirraliligi uni yanada mazmunli qildi.

Ilmiy anjuman doirasida “Temuriylarning buyuk merosi: Markaziy Osiyo san’ati, ilm-fani va madaniyati” nomli ko‘rgazma ham tashkil etildi. Ko‘rgazmada temuriylar davrining me’moriy va badiiy yutuqlari, kitobat san’ati, ilm-fan va ma’rifat an’analariga oid materiallar namoyish qilindi. Shuningdek, O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy, Imom Termiziy va Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari tomonidan tayyorlangan ilmiy hamda ilmiy-ommabop nashrlar xorijlik mehmonlarga taqdim etildi.

O‘zbek allomalari yaratgan ilmiy maktablar va asarlar haqidagi kitoblarga qiziqish milliy merosimizning xalqaro ilmiy muhitda o‘rganilishi uchun keng imkoniyatlar mavjudligini ko‘rsatdi. Uchrashuvning yana bir o‘ziga xos jihati – ilmiy munozaralar an’anaviy o‘zbek dasturxoni atrofida davom etdi. Samimiy suhbatlar rasmiy anjumanlarda boshlangan muloqotlarga yanada iliqlik bag‘ishladi.

Buyuk ajdodlarning bebaho izlari

Parij safari doirasidagi yana bir muhim uchrashuv Fransiya Milliy kutubxonasida bo‘lib o‘tdi. Bu ma’rifat maskanining tarixi bir necha asrlarga borib taqaladi. Uning Sharq qo‘lyozmalari to‘plami esa XVII asrdan boshlab muntazam boyitilgan. Xususan, Lyudovik XIV davrida arab, fors, turkiy va boshqa tillardagi asarlarni to‘plashga katta e’tibor berilgan.

Bu xazinada o‘zbek xalqi tarixi va adabiyotiga oid bebaho manbalar ham saqlanadi. Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Haydar Xorazmiy singari buyuk shoir va mutafakkirlar asarlarining qo‘lyozma nusxalari ana shular jumlasidan. Uchrashuvda eski o‘zbek tilidagi 150 dan ortiq qo‘lyozmalar haqida ma’lumot berildi.

Kutubxonadagi muloqot chog‘ida Sharq qo‘lyozmalari bo‘yicha mutaxassis, bo‘lim rahbari Loran Erishe delegatsiya a’zolariga nodir fondlar haqida ma’lumot berdi. U O‘zbekistonga tashrifi davomida mamlakatimizda madaniy merosni saqlash, o‘rganish va ommalashtirish borasida olib borilayotgan ishlar bilan tanishganini bildirib, mazkur yo‘nalishdagi o‘zgarishlarni ijobiy baholadi.

O‘zbekiston delegatsiyasi a’zolari jahonning eng mashhur muzeylaridan biri – Luvrda ham bo‘lib, bu yerda saqlanayotgan tarixiy va badiiy eksponatlar bilan yaqindan tanishdi. Qadimgi Misr, Yunoniston, Rim, Sharq mamlakatlari tarixi va san’atidan hikoya qiluvchi bu osoriatiqalar tarixni alohida davlatlar doirasida emas, butun insoniyatning umumiy taraqqiyoti sifatida anglashga undaydi.

Tashrif davomida Parijdagi nufuzli diniy-ma’rifiy va madaniy muassasalardan biri – Parij Islom institutida ham muloqot o‘tkazildi. Bir asrlik tarixga ega ushbu majmua 1926-yilda ochilgan bo‘lib, Fransiya musulmonlari hayotida muhim o‘rin tutadi. Muassasa rahbari Shamsiddin Hofiz bilan bo‘lib o‘tgan uchrashuvda O‘zbekistonning islom sivilizatsiyasi tarixida tutgan beqiyos o‘rni, buyuk allomalar merosi hamda diniy-ma’rifiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlar haqida fikr almashildi.

– O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazini barpo etish, uni YUNESKO, BMT singari nufuzli xalqaro tashkilotlar minbarlarida, dunyoning yetakchi davlatlarida keng targ‘ib qilish g‘oyasi bevosita Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevga tegishli, – dedi O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi direktori Firdavs Abduholiqov ushbu safar yakunlariga to‘xtalib. – Bugun biz bu tashabbusning amaliy samaralarini ko‘rmoqdamiz. Bunday taqdimotlar orqali jahon hamjamiyati O‘zbekistonning betakror ma’naviy salohiyati, shonli o‘tmishi, boy madaniy merosi, buyuk allomalarimizning jahon tamadduniga qo‘shgan beqiyos hissasidan yana bir bor voqif bo‘lmoqda. Eng muhimi, biz dunyoga faqat buyuk tariximizni emas, balki ana shu merosga munosib bo‘lishga intilayotgan, ilm-fan, ma’rifat va xalqaro hamkorlikka ochiq Yangi O‘zbekistonni ham namoyon etmoqdamiz.

Rustam JABBOROV,
O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi ilmiy kotibi,
Zohidullo MUNAVVAROV,
O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi bosh ilmiy xodimi.

Mamlakatimizda umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llarini kuz-qish mavsumiga tayyorlash ishlari uchun 150 mlrd. so‘m yo‘naltirilib, minglab mutaxassis va maxsus texnikalar safarbar etilmoqda.

NAMANGAN TAJRIBASI:

AQL MARKAZLARI ORQALI IQTISODIY O‘SISH SARI

So‘nggi yillarda yurtimizda hududlarni rivojlantirish masalasi davlat siyosatining markaziy mavzularига aylandi. Ilgari asosiy e’tibor makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga qaratilgan bo‘lsa, bugun har bir viloyat, har bir tuman va hatto har bir mahallaning iqtisodiy imkoniyatlarini aniqlash va ularni ishga solishga ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda.

Tahlil

Bu bejiz emas. Chunki iqtisodiyotning umumiy o‘sishi, avvalo, hududlardagi iqtisodiy faollik qanday tashkil etilganiga bog‘liq. Agar yangi qiymat yaratilmasa, investitsiyalar samarali ishlamasa, aholi bandligi ta’minlanmasa yoki mahalliy resurslardan oqilona foydalanilmasa, milliy iqtisodiyotning yuqori o‘sish sur’atlarini uzoq muddat saqlab qolish qiyin.

Shu nuqtayi nazardan, Namangan viloyatida amalga oshirilayotgan ishlar hududiy iqtisodiyotni boshqarishning yangi modelini shakllantirishga qaratilgan tajriba sifatida ham ahamiyat kasb etadi. Prezidentimizning ushbu viloyatga tashrifi davomida o‘tkazilgan yig‘ilishlar hamda qurilish materiallari sanoatini rivojlantirishga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishida har bir hududga ilmiy salohiyatga ega “aql markazlari”ni biriktirish bo‘yicha mutlaqo yangi yondashuv ilgari surildi.

Davlatimiz rahbari mazkur tizim aynan Namanganda sinovdan o‘tkazilib, keyinchalik mamlakatning boshqa hududlari uchun ham namuna bo‘ladigan Namangan tajribasi sifatida shakllanishini alohida ta’kidlagan edi. Bu esa hududlarni rivojlantirishda ilm-fan, tahlil va innovatsion yondashuvlarning ahamiyati yanada ortib borayotganini anglatadi.

Yuksak ishonch va zimmadagi burch

Ta’kidlash joizki, Prezidentimiz tomonidan Bank-moliya akademiyasiga mamlakatimiz hududlarining iqtisodiy salohiyatini chuqur tahlil qilish va amaliy takliflar ishlab chiquvchi “aql markazi” sifatida alohida vazifalar yuklatilgan.

Ana shu yuksak ishonch hamda mas’uliyatdan kelib chiqib, akademiya olimlari hamda mutaxassislari Namangan viloyatini yanada rivojlantirish, ishga solinmagan iqtisodiy imkoniyatlarni aniqlash, ularni xalqaro olimlar va ekspertlar bilan birgalikda o‘rganish, muqobil energiya manbalarini keng joriy etish, shuningdek, mavjud muammolarga zamonaviy ilmiy yechimlar ishlab chiqish bo‘yicha tizimli faoliyat olib bormoqda.

Bu yondashuv hududlarni ilmiy asoslangan tahlillar va innovatsion g‘oyalar asosida barqaror rivojlantirishning muhim omili bo‘lib xizmat qilayotir.



Yaqinda ushbu vazifalarning amaliy ijrosini ta’minlash maqsadida xalq deputatlari Namangan viloyati Kengashining sessiyasida Prezidentimiz tashrifi davomida belgilangan topshiriqlarning ijrosi, maqsadli ko‘rsatkichlarga ilm-fan, innovatsiyalar hamda ilmiy asoslangan yondashuvlar orqali erishish, hududlar bilan ishlashga mutlaqo yangi tizimni joriy etish masalalari muhokama qilindi. Sessiya qaroriga muvofiq, Namangan viloyatiga doimiy hamkorlik asosida mamlakatning “aql markazi” sifatida O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi mas’ul qilindi. Mazkur yondashuvning ahamiyati shundaki, uni kelgusida butun mamlakat uchun namuna bo‘ladigan Namangan tajribasi sifatida keltirish mumkin.

Sessiya davomida shahar va tuman hokimlari Bank-moliya akademiyasi hamda “aql markazlari” bilan hamkorlikda tayyorlangan qo‘shimcha zaxira va imkoniyatlarni ishga solishga qaratilgan “yo‘l xaritalari” yuzasidan hisobot berdi. Muhokamada har bir yo‘nalish, har bir loyiha hamda hudud kesimida mavjud muammolar tahlil qilinib, ularning amaliy yechimlari yuzasidan mas’ullar, olimlar va deputatlarning takliflari eshitildi. Yakunda mazkur masala bo‘yicha tegishli qaror qabul qilinib, belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash mexanizmi tasdiqlandi.

Bir qarashda akademiya mutasaddilari tomonidan olib borilayotgan ishlar, viloyatni rivojlantirish istiqbollari navbatdagi tahliliy hisobotdek ko‘rinishi mumkin. Ammo masalaning mohiyati ancha chuqur. Asosiy savol shundaki, Namanganda qayd etilayotgan iqtisodiy o‘sish qanchalik barqaror? Bugungi raqamlar ertangi iqtisodiy taraqqiyot uchun mustahkam zamin yarata oladimi? Yoki ayrim ko‘rsatkichlar hali ham hal etilmagan tizimli muammolarni yashirib turibdimi?

Bu savollarga javob topish uchun raqamlarga murojaat qilish kifoya. E’tibor bering, 2026-yilning birinchi yarmiida Namangan viloyatining yalpi hududiy mahsuloti 45,5 trln. so‘mga yetdi. O‘sish sur’ati 108,3 foizni tashkil qildi. Bu raqam oddiy statistik ko‘rsatkichdek ko‘rinadi. Ammo uning ortida butun bir iqtisodiy tizim harakati turibdi. Sanoat ishlab chiqarishi 108,7 foiz, xizmatlar sohasi 115,9 foiz, qurilish ishlari 113,4 foizga o‘sgan. Aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulot 14,2 mln. so‘mga yetgan. Shu ma’noda, mazkur raqamlar viloyat iqtisodiyotining haqiqiy holatini aks ettiruvchi muhim indikatorlardir.

Bu raqamlar nima degani? Avvalo, iqtisodiyotning deyarli barcha asosiy tarmoqlarida faollik saqlanib qolmoqda. Ikkinchidan, viloyat iqtisodiyoti faqat bitta sohaga tayanmayotgani ko‘rinadi. Bu muhim. Chunki dunyo tajribasi shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy o‘sish bir yoki ikki tarmoq hisobiga ta’minlansa, tashqi shoklar, bozor konyunkturasi o‘zgarishi yoki global inqirozlar ta’sirida iqtisodiyot oson izdan chiqishi mumkin. Namanganda esa sanoat, xizmatlar, qurilish va qishloq xo‘jaligi bir vaqtning o‘zida harakatlanmoqda.

Biroq raqamlarga tanqidiy nazar bilan qarasak, boshqa manzara ham ko‘rinadi. Masalan, yalpi hududiy mahsulot bo‘yicha belgilangan prognoz 109 foiz bo‘lgan. Amalda esa 108,3 foiz ta’minlangan. Bir qarashda 0,7 foizlik farq katta emasdek tuyulishi mumkin. Ammo iqtisodiyotda har bir o‘ndan bir foiz ortida minglab yangi ish o‘rinlari, yuzlab milliard so‘mlik qo‘shimcha qiymat, soliq tushumlari va aholi daromadlarining o‘sish imkoniyatlari mujassam. Shu bois iqtisodiy rivojlanish samaradorligi faqat yuqori sur’atlar bilan emas, balki belgilangan maqsadli ko‘rsatkichlarni to‘liq ta’minlash, resurslardan unumli foydalanish va qo‘shimcha iqtisodiy o‘sish manbalarini ishga solish darajasi bilan ham baholanadi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, Namangan viloyati mutasaddilari oldidagi asosiy vazifa o‘sish sur’atlarini saqlash emas, balki ularning sifatini oshirishdan iborat.

189 ta chora-tadbirdan iborat “Yo‘l xaritasi”

Viloyat bo‘yicha sanoat, qishloq xo‘jaligi, xizmat ko‘rsatish, turizm va ijtimoiy sohalarni qamrab olgan 189 ta aniq chora-tadbirdan iborat “Yo‘l xaritasi” ishlab chiqilgani bejiz emas.

Bank-moliya akademiyasi olimlari hududiy rivojlanishning yangi bosqichida asosiy e’tibor alohida korxonalar yoki alohida investitsiya loyihalariga emas, qiymat zanjirlarini shakllantirishga qaratilishi lozim degan fikrda. Chunki mahsulot yaratishning har bir bosqichi – xomashyo tayyorlashdan tortib, qayta ishlash va sotishgacha bo‘lgan jarayonlar bir-biri bilan bog‘lanmasa, iqtisodiyotning haqiqiy samaradorligiga erishilmaydi. Qolaversa, har bir hududning iqtisodiy imkoniyatlari, investitsiyaviy salohiyati, tadbirkorlik muhiti, aholi bandligi, xizmatlar sohasi hamda eksport imkoniyatlarini chuqur tahlil qilish yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishning aniq “o‘sish nuqtalari”ni belgilash imkonini beradi. Bu hududlarning ichki rezervlarini safarbar etish, yangi biznes tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash va aholi daromadlarini oshirishga xizmat qiladi.

Hududni o‘rganish jarayonida, avvalo, tuman va shaharlar kesimidagi ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlar atroflicha tahlil qilinadi. Shu bilan birga, sanoat zonalarining samaradorligi, investitsiya dasturlari ijrosi, byudjet mablag‘laridan foydalanish holati, xalqaro moliyaviy tashkilotlar ishtirokida amalga oshirilayotgan loyihalar, eksport salohiyati hamda tadbirkorlik muhitining bugungi holati kompleks ravishda ilmiy asosda o‘rganilib, olimlarimiz tomonidan rivojlantirish bo‘yicha aniq takliflar berilmoqda.

E’tiborli jihati shundaki, o‘rganishlar kabinet sharoitida emas, balki bevosita Namanganning tuman va mahallalariga chiqqan holda amalga oshirilyapti. Tuman hamda shahar hokimlari, ularning o‘rinbosarlari, hududiy davlat tashkilotlari rahbarlari, “mahalla yettiligi” vakillari ishtirokida guruhlar tashkil etilib, mavjud muammolar hamda istiqbolli tashabbuslar muhokama qilinmoqda. Bu esa qabul qilinayotgan qarorlarning hayotiyligi va amaliy ahamiyatini yanada oshiradi.

O‘rganishlar nimalardan darak?

Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, Namangan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish bo‘yicha katta salohiyatga ega. Biroq mahsulotning qancha qismi mahalliy hududning o‘zida qayta ishlanmoqda? Qanchasi qo‘shimcha qiymat yaratish bosqichiga o‘tmoqda? Qancha qismi tayyor mahsulot sifatida eksport qilinmoqda? Bu savollarga javob iqtisodiy o‘sishning haqiqiy manbasini ko‘rsatadi.

Shu nuqtayi nazardan, Norin tumani uchun taklif etilgan sutni chuqur qayta ishlash investitsiya loyihasi hududiy iqtisodiyotda yuqori qo‘shilgan qiymat zanjirini shakllantirishga xizmat qiladigan istiqbolli tashabbus sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Loyihaga muvofiq, mahalliy aholi va fermer xo‘jaliklaridan har yili 3 ming tonna sut xarid qilinib, uni zamonaviy texnologiyalar asosida qayta ishlab, pishloq, qatiq, qaymoq, sariyog‘ hamda boshqa tayyor oziq-ovqat mahsulotlariga aylantirish rejalashtirilgan. Bu esa qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sanoat kooperatsiyasiga jalb etish, qayta ishlash sanoatini kengaytirish va hududning eksportbop hamda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish salohiyatini oshiradi.

Loyihaning iqtisodiy samaradorligi ham uning istiqbolini yaqqol namoyon etadi. Dastlabki hisob-kitoblarga ko‘ra, 8 mlrd. so‘mlik kapital qo‘yilmalar evaziga yillik 45 mlrd. so‘mlik tovar aylanmasi shakllanadi, 12 mlrd. so‘m sof foyda olinishi ta’minlanadi. Bu investitsiyalarning yuqori qaytimini, loyihaning moliyaviy barqarorligini hamda rentabellik darajasining yuqoriligini anglatadi. Shu bilan birga, 60 ta yangi doimiy ish o‘rni yaratilishi aholi bandligini ta’minlash, xonadonlar daromadlarini oshirish va hududda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Bu yerda gap faqatgina sutni xomashyo sifatida sotish haqida emas. Masalan, chorvador 1 litr sutni qayta ishlanmagan mahsulot sifatida sotsa, uning iqtisodiy daromadi ma’lum bir cheklangan qiymat bilan ifodalanadi. Biroq aynan shu sut hududning o‘zida qayta ishlanib, qadoqlanib, brending asosida tayyor mahsulot sifatida ichki va tashqi bozorlarga chiqarilsa, uning bozor qiymati bir necha baravar ortib, mahsulotning qo‘shilgan qiymati sezilarli darajada o‘sadi. Natijada xomashyo ishlab chiqaruvchi, qayta ishlovchi korxona, logistika tarmog‘i, savdo infratuzilmasi va xizmat ko‘rsatish sohalari o‘rtasida mustahkam iqtisodiy kooperatsiya shakllanadi.

Xulosa o‘rnida aytsak, Namangan viloyati misolida bir haqiqat o‘z isbotini topmoqda: tahlil, manzilli “Yo‘l xaritasi”, ilmiy yondashuv hamda hayotiy loyihalar birlashganda iqtisodiy o‘sish qog‘ozdagi ko‘rsatkichdan odamlar hayotidagi o‘zgarishga aylanadi. Sanoat, qishloq xo‘jaligi, xizmatlar, investitsiya va bandlik bo‘yicha qayd etilgan natijalar shuning yorqin dalilidir. Agar tahlil qarorga, qaror esa amaliy natijaga aylansa, Namangan nafaqat iqtisodiy o‘sish sur’atlari, balki hayot sifati bo‘yicha ham mamlakatning yetakchi hududlaridan biriga aylanishi, shubhasiz.

Elmurod HOSHIMOV,
Bank-moliya akademiyasi rektori.

O‘ZBEKISTON – HECh KIM E’TIBORDAN ChETDA QOLMAYDIGAN DIYOR

Bugun O‘zbekiston o‘z tarixiy taraqqiyotining mutlaqo yangi, shiddatli va insonparvar bosqichini bosib o‘tmoqda. Amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli, chuqur hamda tizimli islohotlar markazida davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan va bugun hayotimizning bosh qoidasiga aylangan “Inson qadri uchun” degan oliyjanob tamoyil mujassam.

Ijtimoiy himoya

Mamlakatimizda boshlangan yangi davr islohotlarining tarixiy yutuqlaridan biri – yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining umumxalq referendumi asosida qabul qilinishi bo‘ldi. Bosh qomusimizda ilk bor O‘zbekiston ijtimoiy davlat ekanligi qat’iy belgilab qo‘yildi. Mustahkamlangan ijtimoiy davlat tamoyillari asosida har bir fuqaroning munosib hayot kechirishi, uy-joyga ega bo‘lishi, malakali tibbiy yordam va sifatli ta’limdan mutlaqo erkin foydalanishi konstitutsiyaviy kafolatga aylandi.

Ijtimoiy himoya bo‘yicha islohotlar ijrosini ta’minlash maqsadida mutlaqo yangi tuzilma – Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkil etildi. Mazkur tuzilma sohadagi eng katta institutsional qadam hamda inqilobiy yangilanish bo‘ldi. Agentlikning faoliyat boshlashi sohada tub burilish yasab, tarqoq holdagi barcha xizmat va funksiyalarni, mablag‘ hamda metodologiyani yagona markazga jamladi. Shahar hamda tumanlardagi “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari og‘ir vaziyatga tushib qolgan fuqarolarga mahalla darajasida kompleks ijtimoiy, psixologik va yuridik ko‘mak berayotir. Tizimga yangi kirib kelgan professional “ijtimoiy xodimlar” har bir oilaning ahvolini xonadonlarga kirgan holda individual o‘rganib, manzilli ish olib boryapti.

Kuchli ijtimoiy himoya, bu shunchaki nafaqa yoki moddiy yordam berish emas. Bu – insonning muammosini chuqur o‘rganish, uning sabablarini aniqlash, zarur xizmatlarni bir joyga jamlash, fuqaroga o‘z hayotini yaxshilashi uchun imkoniyat yaratish, degani. O‘zbekistonning ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash modeli faqat nafaqa berish bilan cheklanib qolmaydi. Bu borada dunyo tajribasida mutlaqo noyob bo‘lgan yangi tizim – “temir daftar”, “ayollar daftari” va “yoshlar daftari” mexanizmlari yaratildi.

Mazkur manzilli dasturlar doirasida alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni qo‘llab-quvvatlash, muayyan yashash joyiga ega bo‘lmagan hamda odam savdosidan jabrlangan fuqarolarni reabilitatsiya qilish, shuningdek, imtiyozli transport xizmatlarini to‘liq raqamlashtirishga qaratilgan amaliy ishlarga katta e’tibor qaratilayotir.



So‘nggi uch yil ichida mamlakatimizda ko‘rsatilayotgan ijtimoiy xizmatlar soni 23 tadan 140 tagacha yetdi. Har yili yurtimizda o‘rtacha 4,6 millionta (shundan qariyb 2 milliontasi bevosita mahalla darajasida) ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatilmoqda. Bu esa xizmatlar muhtoj insonlarning ostonasigacha yetib borayotganini ko‘rsatadi.

Bugungi kunda respublikamizda nogironligi bo‘lgan 168 mingdan ortiq bolalar istiqomat qiladi. Ularning 133,8 ming nafari ta’lim va ijtimoiy xizmatlar bilan qamrab olingan. Qolgan 34,6 ming bolani ham to‘laqonli ta’lim muhitiga jalb etish uchun tub o‘zgarishlar belgilandi.

Shu yil 1-oktyabrdan Xorazm va Navoiy viloyatlarida tajriba tariqasida har bir bolaning ehtiyojlari erta bosqichda aniqlanib, unga mos individual ta’lim va xizmatlar yo‘nalishi belgilanadi. 2026/2027 o‘quv yilidan boshlab maxsus maktablarda ta’lim bolaning funksional imkoniyatlaridan kelib chiqib tashkil etilyapti.

Ko‘zi ojiz pedagoglarga hamda maxsus maktablarning boshlang‘ich sinflariga shaxsiy assistentlar biriktiriladi. Nodavlat maktablarda korreksion sinflar ochilsa, har bir o‘quvchi uchun davlatdan subsidiya ajratiladi. Har yili 50 ta maktabga inklyuziv muhit yaratish uchun maxsus grantlar beriladi. Kelasi yildan boshlab bolalarga matnni o‘quvchi qurilmalar, Brayl displeylari va ovoz sintezatorlari vaucher asosida beriladi. 2027/2028 o‘quv yilidan esa kirish imtihonlarida surdotarjimon, Brayl alifbosi va qo‘shimcha vaqt kafolatlanadi.

Muayyan yashash joyiga ega bo‘lmagan fuqarolarga munosabat tubdan insonparvarlashtirilmoqda. Amaldagi reabilitatsiya muassasalari endilikda Vaqtinchalik boshpana va ijtimoiy tiklanish markazlariga aylantiriladi. Boshpanasiz shaxslar bu markazlarga o‘z ixtiyori bilan, “mahalla yettiligi” yoki ijtimoiy xodimlar ko‘magida joylashtiriladi. Har bir shaxs uchun individual dastur tuzilib, hujjatlari tiklanadi, tibbiy va psixologik yordam ko‘rsatiladi. Kasbga o‘qish uchun vaucherlar berilib, korxonalarda ular uchun maxsus ish o‘rinlari zaxiralanadi. Markazlar hududida tadbirkorlarga imtiyozli ijara joylari ajratilib, shu yerning o‘zida yangi ish o‘rinlari ochiladi.

> *“So‘nggi uch yil ichida mamlakatimizda ko‘rsatilayotgan ijtimoiy xizmatlar soni 23 tadan 140 tagacha yetdi. Har yili yurtimizda o‘rtacha 4,6 millionta (shundan qariyb 2 milliontasi bevosita mahalla darajasida) ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatil-moqda. Bu esa xizmatlar muhtoj insonlarning ostonasigacha yetib borayotganini ko‘rsatadi.”*

Shu bilan birga, joriy yil 1-sentyabrdan “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari orqali jabrlanganlarni mahallaning o‘zida aniqlash va kompleks yordam ko‘rsatish yo‘lga qo‘yildi. Ayollarni reabilitatsiya qilish markazlari “Ayollar va bolalarni reabilitatsiya qilish markazlari” etib qayta nomlandi. Qoraqalpog‘iston, Qashqadaryo, Samarqand va Farg‘onadagi markazlarda jabrlangan onalar va ularning farzandlari uchun qo‘shimcha maxsus o‘rinlar ochilayotir. Bolalar huquqlarini buzganlik uchun ham qonunchilikda qat’iy choralar ko‘rilayotganini alohida ta’kidlash joiz. Bolalar savdosi uchun qat’iy jinoiy javobgarlik belgilanmoqda hamda odam savdosiga aloqador shaxslarning tashqi migratsiya sohasida faoliyat yuritishi umrbod cheklanmoqda.

Mamlakatimizda urush qatnashchilari, nogironligi bo‘lgan shaxslar va Chernobil falokati qatnashchilari singari 11 toifadagi 48,4 mingdan ortiq fuqarolar transportda imtiyozli harakatlanish huquqiga ega bo‘lib, ular yiliga qariyb 1,7 mln. marta safar qilishmoqda. Chipta olish uchun faqat ID-karta yoki pasportni taqdim etish yetarli bo‘ladi. Imtiyoz huquqi “Yagona milliy ijtimoiy himoya” reestridan avtomatik tekshiriladi. Kelasi yil 1-yanvardan boshlab imtiyozli avia, temir yo‘l va shaharlararo avtobus chiptalarini “Baraka” mobil ilovasi orqali uydan chiqmasdan, onlayn rasmiylashtirish imkoniyati yaratiladi.

Umuman, ushbu yangi tizim hamda konsepsiyalar shunchaki navbatdagi ijtimoiy yordam choralari emas. Bu – har bir bolaning kelajagiga, hayotda adashgan yoki og‘ir vaziyatga tushib qolgan fuqaroning insoniy qadr-qimmatini tiklashga qaratilgan mustahkam hamda adolatli ijtimoiy kafolatdir. Ijtimoiy sohaga kirib kelayotgan raqamlashtirish, vaucher tizimi va manzilli yondashuv Yangi O‘zbekistonning insonparvarlik qiyofasini amalda yanada yorqinroq namoyon etadi.

Yangi O‘zbekistonda aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimida amalga oshirilgan transformatsiya shunchaki oddiy sohaviy islohot emas, balki milliy davlatchiligimiz tarixidagi buyuk ma’naviy hamda siyosiy evrilishdir. Zero, bugun vatandoshlarimiz o‘z davlatining ishonchli himoyasida ekanligini, uning qadri va manfaatlari har narsadan ustun turishini yurakdan his qilmoqda.

Tohir QAYUMOV,
Nogironligi bo‘lgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va protezlash milliy markazi bosh shifokori.

Kasaba uyushmalarida

AYOL FERMERLAR BELLASHUVI

BMTning 2007-yil 18-dekabrdagi rezolyutsiyasi bilan har yili 15-oktyabr – Xalqaro qishloq ayollari kuni sifatida nishonlanadi. Qolaversa, qishloqlarda faoliyat yuritayotgan fermer ayollarning oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashdagi mehnatini e’tirof etish hamda ularni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash maqsadida BMT Bosh Assambleyasining rezolyutsiyasi bilan 2026-yil “Fermer ayollar yili” deb e’lon qilingan.



Sana munosabati bilan O‘zbekiston agrosanoat majmui xodimlari kasaba uyushmasi respublika kengashi tashabbusiga ko‘ra O‘zbekiston fermerlar kengashi hamda O‘zbekiston agrar soha ayollar uyushmasi hamkorligida “Ibratli ayol fermer” respublika tanlovi o‘tkazildi.

– Qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat sanoatida inson resurslari, jumladan, xotin-qizlarning roli yildan-yilga ortib borayotir, – deydi O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi matbuot xizmati rahbari Muhabbat O‘rmonbekova. – Bugungi kunda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan fermer xo‘jaliklarining 3 596 tasiga xotin-qizlar rahbarlik qilmoqda. Ular izlanuvchanligi, ilg‘or tajriba va texnologiyalarni qo‘llashi orqali yuqori mehnat samaradorligiga erishyapti. Ushbu tadbir esa ularni yanada rag‘batlantirishda muhim o‘rin tutmoqda.

Tanlov yakuniga ko‘ra, Samarqand viloyatining Urgut tumanidagi “Domla Abroriy UMR” fermer xo‘jaligi rahbari Maftuna Berdiqulova 1-o‘rinni, Qoraqalpog‘iston Respublikasining Kegeyli tumanidagi “Arzu” fermer xo‘jaligi rahbari Palzada Saliyeva 2-o‘rin, Qashqadaryo viloyati, Kasbi tumanidagi “Abdullayev Dilbek Abduqahhorovich” fermer xo‘jaligi rahbari Malika Umirova esa 3-o‘rinni egalladi. Shuningdek, turli nominatsiyalar g‘oliblari ham aniqlanib, munosib rag‘batlantirildi. Bir guruh fermer xo‘jaligi rahbarlari “Ilg‘or fermer” ko‘krak nishoni bilan taqdirlandi.

TO‘QQIZ OYLIK FAOLIYAT SARHISOBI

O‘zbekiston agrosanoat majmui xodimlari kasaba uyushmasi respublika kengashida joriy yilning to‘qqiz oylik faoliyati yakunlariga bag‘ishlangan yig‘ilish bo‘lib o‘tdi.

Unda tizimda o‘tgan to‘qqiz oy davomida amalga oshirilgan ishlar, belgilangan vazifalar ijrosi, hududiy kengashlar faoliyati va kelgusidagi ustuvor vazifalar muhokama qilindi. Xususan, xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini himoyalash, mehnat huquqlari va kafolatlarini ta’minlash, jamoa shartnomalari ijrosi, mehnat muhofazasi, kasaba uyushmasi a’zolarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, uning boshlang‘ich tashkilotlari faoliyatini takomillashtirish borasida amalga oshirilgan ishlar chuqur tahlil etildi.

Bundan tashqari, hududlarda amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligini oshirish, mavjud muammolarni o‘z vaqtida bartaraf etish, ijro intizomini mustahkamlash, raqamlashtirish jarayonlarini yanada jadallashtirish masalalari yuzasidan fikr almashildi.

Yakunda kasaba uyushmasi tashkilotlari faoliyati samaradorligini yanada oshirish, xodimlarning qonuniy huquq va manfaatlarini ishonchli himoyalash hamda yil yakuniga qadar belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” ishlab chiqilishi va uning ijrosi bo‘yicha barcha imkoniyat safarbar etilishi zarurligi ta’kidlandi.

“Xalq so‘zi”.

2027-yilning birinchi yarmida Belgradda O‘zbekiston – Serbiya ayollar biznes forumini tashkil qilish ko‘zda tutilgan.

Dual ta’lim:

YOSHLAR KELAJAGINI MEHNAT BOZORI BILAN BOG‘LAYDIGAN KO‘PRIK

Bugungi dunyoda ta’limning qadri faqat auditoriyada olingan bilim bilan o‘lchanmaydi. Zamonaviy mehnat bozori bitiruvchidan “Nimalarni biladi?” degan savol bilan birga “Nimalarni bajara oladi?”, “Olgan bilimini amaliyotda qo‘llay oladimi?”, “Texnologiya va ishlab chiqarish jarayoniga qanchalik tez moslasha oladi?” degan savollarga ham javob kutmoqda.

Yuksalish odimlari



Shu ma’noda, 30-sentyabr kuni Prezidentimizning ustoz va murabbiylar bilan uchrashuvda ilgari surgan oliy ta’limda dual ta’limni yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan tashabbuslari alohida ahamiyatga ega bo‘ldi. Uchrashuvda mamlakatimizda oliy ta’lim bilan qamrov kengaygani, talabalar soni 1,6 millionga yetgani qayd etilib, endi asosiy e’tibor ta’lim mazmuni va tayyorlanayotgan mutaxassislarning bugungi talabga mosligiga qaratilishi zarurligi ta’kidlandi. Xususan, oliygohlardagi o‘quv dasturlarini mehnat bozori talablari asosida qayta ko‘rib chiqish, bitiruv ishlari va ilmiy tadqiqotlarni amaliy masalalarga yo‘naltirish vazifasi qo‘yildi. Bu oliy ta’lim rivoji yo‘lida muhim yondashuv. Chunki ta’lim tizimi mehnat bozori bilan bir butun tizim sifatida rivojlangandagina uning ijtimoiy va iqtisodiy samarasi yuzaga chiqadi.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda oliy ta’lim tizimi tubdan kengaydi. Oliy ta’lim muassasalari soni 77 tadan 205 taga, oliy ta’lim bilan qamrov esa 45 foizga yetdi. Shu bilan birga, 185 ta ta’lim dasturi xalqaro akkreditatsiyadan o‘tganini, xorijiy universitetlar bilan hamkorlikda 441 ta qo‘shma ta’lim dasturi yo‘lga qo‘yilganini ham aytib o‘tish lozim.

Bu raqamlar biz uchun muhim haqiqatni ko‘rsatadi: endi masala yoshlarni oliy ta’limga jalb etishdagina emas. Ularni munosib kasb, barqaror daromad va mehnat bozorida o‘z o‘rniga ega bo‘lish imkoniyati bilan ta’minlash. Oliy ma’lumotli yoshlarning ish izlab, “Tajribangiz bormi?” degan savol oldida to‘xtab qolishi ta’lim va mehnat bozori o‘rtasidagi uzilishlardan biridir. Talaba to‘rt yil davomida nazariy bilim oladi, ammo ish beruvchi undan amaliy ko‘nikma, jamoada ishlash, texnologiyadan foydalanish, mijoz bilan muloqot, muammoni mustaqil hal qilish va ishlab chiqarish intizomini talab etadi.

Dual ta’lim esa universitetdagi nazariya va korxonadagi amaliyot o‘rtasida ko‘prikdir.

“Korxona – universitet – maqsadli kadr”

Dual ta’lim amaliyot o‘tashning kengaytirilgan shakli emas, balki ish beruvchi ehtiyoji bilan boshlanadigan kadrlar tayyorlash mexanizmi sifatida shakllantirilmoqda. Belgilangan tartibga ko‘ra, kelasi yildan “korxona – universitet – maqsadli kadr” tizimi 75 ta oliy ta’lim muassasasida, 2028-yildan esa barcha oliygohlarda joriy etiladi. Korxona o‘ziga zarur mutaxassisni tayyorlash bo‘yicha oliy o‘quv yurtiga buyurtma beradi. Nomzod suhbat asosida qabul qilinadi. Ishga olingan talabaga to‘langan maoshning yarmini davlat qoplaydi. O‘qish va ishda yaxshi natija ko‘rsatgan talaba ikkinchi kursdan davlat grantiga o‘tishi mumkin. Korxona tomonidan mas’ul qilingan ustoz ham rag‘batlantiriladi, zarur holatlarda talabaning ijara xarajati qoplanadi.

Bu mexanizmning mohiyati shundaki, talaba ishga kirish uchun diplom olishini kutmaydi, balki ta’lim jarayonining o‘zidayoq kasbiy faoliyatga kirishadi. Ya’ni korxona ehtiyojni belgilaydi, oliygoh ta’lim mazmunini moslashtiradi, talaba o‘qiydi va ishlaydi, korxona amaliy ko‘nikmani shakllantiradi, davlat rag‘batlantiradi hamda natijada maqsadli mutaxassis shakllanadi. Bunda uch tomonning manfaatlari bir nuqtada tutashadi. Talaba uchun – bilim, tajriba, daromad va ishga kirish imkoniyati. Ish beruvchi uchun – tayyor, korxona talabini biladigan va ishlab chiqarish muhitiga moslashgan kadr. Oliy ta’lim uchun esa real sektor bilan bog‘langan, mehnat bozori ehtiyojiga mos o‘quv dasturi va amaliy natija. Bundan davlat ham manfaatdor bo‘lib, u inson kapitaliga yo‘naltirilgan investitsiyaning yuqori ijtimoiy-iqtisodiy natijasidan bahramand bo‘ladi.

Shu o‘rinda bir jihatni alohida qayd etish lozim. Dual ta’limni “Talaba o‘qishdan tashqari ishlaydi”, degan tushunchaga tenglashtirish xato bo‘ladi. Dual ta’limda korxonadagi ish o‘quv dasturining mantiqiy davomi bo‘lishi kerak. Talaba qaysi kompetensiyani universitetda nazariy jihatdan o‘rgansa, uning amaliy ko‘rinishini korxonada egallashi, ish jarayonida duch kelgan muammolarini esa universitetdagi bilimlari asosida tahlil qila olishi zarur.

Demak, bu tizimning asosiy tamoyili: “Nazariya – amaliyot – tahlil – yangi bilim – yangi amaliyot”. Shu bois dual ta’limning samarasi ta’lim dasturi va ish joyining qanchalik uyg‘unlashtirilgani bilan o‘lchanishi kerak. Talabaga korxonada oddiy yordamchi vazifasini berib qo‘yish ham dual ta’lim emas. Uni mutaxassis sifatida shakllantirishga xizmat qiladigan aniq kompetensiyalar, mentorlik, baholash mezonlari va bosqichma-bosqich mas’uliyat tizimi bo‘lishi ham kerak.

O‘zbekistonda bunday yondashuv uchun muhim tajriba shakllanib kelmoqda. 2025-yilgi ta’limga oid normativ-huquqiy hujjatlarimizda dual ta’lim doirasida korxona, oliy ta’lim tashkiloti va talaba o‘rtasidagi uch tomonlama bitim, korxona tomonidan mas’ul amaliyot rahbari va talabaning ish joyi-da amaliy ko‘nikmalarni egallashi kabi mexanizmlar belgilangan. Bu borada tajriba bor.

Prezidentimiz uchrashuvda qayd etgan ma’lumotlarga ko‘ra, kasbiy ta’limda so‘nggi ikki yilda 104 ta texnikumda xalqaro dasturlar joriy qilingan. Texnikumlarning 25 mingta korxona bilan hamkorligi 100 mingdan ziyod yoshlarga o‘qish bilan bir vaqtda daromad topish imkonini bergan. Dual ta’limda kasb o‘rganayotgan yoshlarga 1 mln. 300 ming so‘mgacha stipendiya to‘lanmoqda. Bu tajriba ham dual ta’limning ijtimoiy mazmunini ochib beradi: yoshlar ta’lim olayotgan paytidayoq kasbiy hayotga kirib borishmoqda.

Endilikda ushbu tajribani oliy ta’lim darajasida yangi mexanizm bilan uyg‘unlashtirish, shu bilan birga, barcha ta’lim yo‘nalishlariga yoppasiga joriy etish bilan bog‘liq masalani ilmiy asosda tahlil qilish, magistraturada ilm qiladigan va kelajakda tanlagan mutaxassisligi bo‘yicha doktoranturada o‘qishini davom ettirmoqchi bo‘lgan talaba-yoshlarga maqbul mexanizmni ishlab chiqish vazifasi ham turibdi.

Germaniya tajribasi: “ikki joyda o‘qish”dan – “ikki muhitda shakllanish”gacha

Dual ta’lim haqida gap ketganda, albatta, Germaniya tajribasiga murojaat qilish maqsadga muvofiq. Germaniyaning dual kasbiy ta’lim tizimi yuz yildan ortiq tarixga ega. Unda ta’lim ikki muhitda: korxona va kasb-hunar maktabida olib boriladi. O‘quvchi ta’lim oluvchi va korxona bilan mehnat munosabatidagi shaxs hisoblanadi. Korxona o‘quvchini amaliy jihatdan tayyorlaydi va unga haq to‘laydi, kasb-hunar maktabi esa nazariy va umumkasbiy bilimlarni beradi. Tizim davlat, biznes, hududlar hamda ijtimoiy hamkorlar o‘rtasidagi institutsional hamkorlikka tayanadi.

> *Dunyoda texnologiyalar juda tez o‘zgarmoqda. Bugun talab yuqori bo‘lgan ayrim kasblarning mazmuni ertaga butunlay o‘zgarishi mumkin. Sun’iy intellekt, avtomatlashtirish, robototexnika, “yashil” iqtisodiyot, raqamli moliya va boshqa yangi yo‘nalishlar mehnat bozoriga yangi talablarni olib kirmoqda. Bunday sharoitda yoshlarga faqat bitta kasbni o‘rgatish yetarli emas. Ularga yangi ilmlarni qanday o‘rganish, yangi texnologiyaga moslashish, mustaqil fikrlash, muammoni hal qilish va butun umri davomida o‘z ko‘nikmalarini yangilab borish qobiliyatini berish kerak. Dual ta’limning uzoq muddatli qiymati ham aynan shunda namoyon bo‘ladi.*

Germaniyada davlat tomonidan tan olingan 320 dan ortiq dual tayyorgarlik kasblari mavjud bo‘lib, ularning mazmuni mehnat bozori ehtiyojlari va texnologik o‘zgarishlarga qarab muntazam yangilanadi. Oliy ta’limdagi dual dasturlar esa bundan ham qiziqarli model sifatida namoyon bo‘ladi. Germaniya Federal kasbiy ta’lim va tayyorgarlik instituti – “BIBB” ma’lumotiga ko‘ra, dual bakalavriat dasturlarida universitetdagi akademik ta’lim bilan korxonadagi amaliy faoliyat chambarchas bog‘lanadi. Ayrim dasturlarda talaba akademik daraja bilan bir qatorda kasbiy malakaga ham ega bo‘ladi.

2024-yilgi “BIBB AusbildungPlus” ma’lumotlar bazasida 1 824 ta dual oliy ta’lim dasturi qayd etilgan. Germaniya modelining muhim sabog‘i shundaki, dual ta’limni bitta qaror yoki bitta universitetning tashabbusi bilan yaratib bo‘lmaydi. Uning samaradorligi aniq kasbiy standartlar, ish beruvchining mas’uliyati, malakali mentor, ta’lim muassasasi, davlat va biznes o‘rtasidagi muvofiqlashtirilgan hamkorlik bilan ta’minlanadi.

“OYECD” ham ish joyidagi ta’lim va “apprenticeship” (ishlab turib kasb o‘rganish) dasturlarini yoshlarning ta’limdan mehnatga o‘tishini yengillashtiruvchi mexanizmlardan biri sifatida baholaydi. Germaniyada esa dual tayyorgarlik mehnat bozoridagi ko‘nikmalar tanqisligi sharoitida ish beruvchilar uchun ham kadrlar tayyorlash vositasi bo‘lib qolmoqda.

Germaniya tajribasi tamoyillarini O‘zbekiston milliy sharoitiga moslashtirishda mamlakatimiz ta’lim tizimi, mehnat bozori, demografik tarkibi va iqtisodiy modeli ham inobatga olinsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Zero, Sharq tafakkurida qayd etilganidek, bilim hayotga xizmat qilgandagina kuchga aylanadi. Bu yerda “yetti o‘lchab, bir kesish” tamoyili asosida ish ko‘rish, shart-sharoitlar, institutsional mexanizmlarni inobatga olish lozim. Germaniya davlati ushbu holatga yetib kelguniga qadar qariyb yuz yillik masofani bosib o‘tgan bo‘lsa, hozirgi sun’iy intellekt, raqamli texnologiyalar shiddat bilan rivojlanayotgan zamonda buncha vaqtni ketkazish shart emas, ammo “ikkinchi tomondan” barcha jihatni, omillarni e’tiborga olmasdan, normativ hujjatlarni bir-biriga muvofiqlashtirmasdan turib to‘g‘ridan-to‘g‘ri joriy etish bilan bog‘liq qiyinchiliklar ham yuzaga chiqishini inobatga olish zarur.

Ajdodlar tafakkuri: ilm-hunar va mehnat uyg‘unligi

Bilim va amaliyot uyg‘unligi biz uchun begona g‘oya emas. Abu Nasr Forobiy ta’lim mohiyatini nazariy bilim berishdan tashqari muayyan hunarni egallash uchun zarur amaliy malakalarni shakllantirish bilan bog‘lagan. Uning qarashlarida bilim insonning hayotiy kamolotiga xizmat qilishi kerak. Yusuf Xos Hojib esa “Qutadg‘u bilig”da bilimni insonning eng katta boyliklaridan biri sifatida ko‘radi. Bilimning boylikka aylanishi esa uni amaliyotga tatbiq eta olish bilan bog‘liq.

Shunday ekan, bugungi dual ta’lim ajdodlarimiz tafakkuridagi ilm, hunar va mehnat uyg‘unligining zamonaviy institutsional shaklidir.

Yaqin istiqbolda natija qanday bo‘ladi? Yangi tizimning dastlabki natijasi, avvalo, talabaning mehnat bozoriga kirish jarayonida ko‘rinadi. Negaki, talaba o‘qish davridayoq ish muhitini ko‘radi. Bu uning kasb tanlovini ham aniqroq qiladi. Yosh mutaxassisning ish beruvchi uchun “tajribasiz bitiruvchi” sifatidagi holati qisqaradi. U diplom olganida korxona madaniyati, mehnat intizomi, texnologik jarayonlar va kasbiy vazifalar bilan tanish bo‘ladi. Talabaning o‘qish bilan birga daromad topishi uning iqtisodiy mustaqilligini kuchaytiradi. Ish beruvchi esa o‘ziga kerak bo‘lgan kadrni “tayyor bozordan izlash” bilan cheklanmay, uni ta’lim jarayonining o‘zida shakllantirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Shuningdek, oliygohlar o‘quv dasturlarini iqtisodiyotdan kelayotgan talablar asosida yangilab boradi. Eng muhimi, “diplom olaman, keyin ish qidiraman” modeli “o‘qiyman, ishlayman, tajriba orttiraman va mutaxassis bo‘lib shakllanaman” modeliga aylanadi.

Uzoq istiqbolda esa gap faqat talabalar haqida emas. Dual ta’limning qiymati bitiruvchilarning ishga joylashishidan ancha kengroq samara beradi. Tizim izchil yo‘lga qo‘yilsa, bir necha yil ichida korxonalar o‘zining doimiy “kadrlar maktabi”ga ega bo‘lishi mumkin.

Oliy ta’lim muassasalari esa iqtisodiyotning ehtiyojlarini muntazam kuzatib boradigan bilim markazlariga aylanadi. Bu jarayon innovatsiyaga ham ta’sir qiladi. Talaba korxonadagi kasbiy muammolarni universitetga olib keladi. Professor uni ilmiy masalaga aylantiradi. Ilmiy izlanish amaliy yechimga aylanadi. Korxona esa bu yechimni ishlab chiqarishga joriy etadi.

Shunday qilib, “talaba – korxona – professor – tadqiqot – innovatsiya” zanjiri shakllanadi. Bu esa oliy ta’limni faqat kadr yetkazib beruvchi tizimdan iqtisodiy taraqqiyotning faol hamkoriga aylantirish imkonini beradi.

Tizimning muvaffaqiyati uchta shartga e’tibor qaratilishiga bog‘liq. Birinchi sharti – sifat. Talaba korxonaga ishchi kuchi bo‘lib emas, o‘rganayotgan mutaxassis sifatida borishi kerak. Uning o‘quv maqsadlari, ish vazifalari va baholash mezonlari oldindan belgilanmog‘i zarur.

Ikkinchi shart – mentorlik. Germaniya tajribasi ham ko‘rsatadiki, korxonadagi ustozning roli hal qiluvchi ahamiyatga ega. Talabaning yoniga tajribali mutaxassis biriktirilishi kasbiy shakllanishining muhim qismi. Shu bois yangi tizimda korxona ustozlarini rag‘batlantirish mexanizmining belgilangani juda muhim.

Uchinchi shart – natijani o‘lchash. Dual ta’limni faqat nechta korxona bilan shartnoma tuzilgani yoki nechta talaba ishga olingani bilan baholash yetarli emas. Asosiy ko‘rsatkichlar talabalarning kompetensiyasi, o‘qishni davom ettirish ko‘rsatkichi, daromadi, bitirgach, ishda qolishi, ish beruvchining qoniqishi va korxonadagi mehnat unumdorligiga qo‘shgan hissasi bo‘lishi kerak.

Dual ta’lim universitet tushunchasini ma’lum ma’noda kengaytiradi. Universitet auditoriya, laboratoriya va kutubxonadan iborat bo‘lmaydi. Korxona, zavod, bank, AT-kompaniya, maktab, shifoxona, media tashkiloti, tadqiqot markazi ham ta’lim makonining bir qismiga aylanadi.

Bu yondashuv, ayniqsa, muhandislik, energetika, qishloq va suv xo‘jaligi, sun’iy intellekt, tibbiyot kabi strategik yo‘nalishlarda katta ahamiyat kasb etadi. Aynan shu sohalarga dual ta’lim va ilg‘or xorijiy dasturlarni kengaytirishda ustuvor e’tibor qaratilayotgani ham bejiz emas.

Bunday tizimda professorning vazifasi ham o‘zgaradi. U bilimni muammolar yechimiga tatbiq qilishga yo‘naltiruvchi mentorga ham aylanadi. Korxona mutaxassisi ham ta’lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi.

Inson kapitali – eng uzoq muddatli investitsiya. Bugun bir talabaga berilgan sifatli ta’lim ertaga uning oilasi daromadiga, korxona unumdorligiga, hududning iqtisodiy faolligiga va mamlakatning raqobatbardoshligiga ta’sir qiladi. Shuning uchun dual ta’limni faqat ta’lim tizimining dolzarb shakli sifatida emas, inson kapitaliga investitsiyaning samarali modeli sifatida ko‘rish zarur. Maktabda kasbga yo‘naltirish, texnikumda amaliy tayyorgarlik, oliygohda akademik bilim va korxonada tajriba – bular bir-biridan uzilmagan, yagona zanjirga aylanganda ta’limning iqtisodiy samarasi yanada ortadi.

Prezidentimiz ta’lim siyosatining uzoq muddatli maqsadlarini belgilarkan, yoshlarni zamonaviy bilim hamda mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan kasb-hunarlarga o‘rgatish, ularda tadbirkorlik va mehnatsevarlik ko‘nikmalarini shakllantirish masalasiga alohida urg‘u berib kelmoqda. Bugungi yangi tashabbus ana shu g‘oyaning oliy ta’limdagi mantiqiy davomidir.

Mezon – bitiruvchining hayotdagi natijasi

Dual ta’lim – universitetning jamiyat va iqtisodiyot oldidagi mas’uliyatini qayta anglash imkoniyati. Bugun oliygoh eshigidan kirib kelayotgan yoshlarning ko‘z oldida aniq kasbiy yo‘l, mehnat tajribasi, munosib daromad va o‘z salohiyatini namoyon etish imkoniyati bo‘lishi lozim. Universitetning vazifasi esa shu yo‘lni imkon qadar erta va sifatli ochib berishdir.

Shu nuqtayi nazardan, uchta muhim tushunchaning birligi – ish beruvchining ehtiyoji, universitetning ilmiy-pedagogik salohiyati va yoshlarning kelajakka intilishi muhim. Dual ta’limning eng katta afzalligi talaba ta’lim jarayonining iste’molchisi bo‘lish bilan birga, rivojlanish jarayonlarining ishtirokchisi bo‘ladi.

Dunyoda texnologiyalar juda tez o‘zgarmoqda. Bugun talab yuqori bo‘lgan ayrim kasblarning mazmuni ertaga butunlay o‘zgarishi mumkin. Sun’iy intellekt, avtomatlashtirish, robototexnika, “yashil” iqtisodiyot, raqamli moliya va boshqa yangi yo‘nalishlar mehnat bozoriga yangi talablarni olib kirmoqda. Bunday sharoitda yoshlarga faqat bitta kasbni o‘rgatish yetarli emas. Ularga yangi ilmlarni qanday o‘rganish, yangi texnologiyaga moslashish, mustaqil fikrlash, muammoni hal qilish va butun umri davomida o‘z ko‘nikmalarini yangilab borish qobiliyatini berish kerak. Dual ta’limning uzoq muddatli qiymati ham aynan shunda namoyon bo‘ladi.

Korxona talabaning salohiyatini shakllantirishga hissa qo‘shadi. Universitet esa unga shu salohiyatni rivojlantirish uchun mustahkam ilmiy poydevor beradi. Universitetning vazifasi – bugungi mehnat bozori ehtiyojlarini qondirish bilan birga, ertangi ehtiyojni oldindan ko‘ra oladigan mutaxassisni tayyorlash. Shuning uchun bizga amaliyotchi ham, tadqiqotchi ham, ijrochi ham, innovator ham, mutaxassis ham, lider ham bo‘la oladigan avlod kerak. Agar ushbu yangi tizim to‘g‘ri yo‘lga qo‘yiladigan bo‘lsa, shu ikki qutb ilm va amaliyotni birlashtirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Talabalarda universitetni tamomlaganida kasb, tajriba, kompetensiya, mehnat madaniyati va o‘z kuchiga ishonchi ham bo‘lar ekan, ana shunda ta’lim hayotdan ajralmaydi, bilim hunarga aylanadi. Hunar esa insonning munosib hayoti, oilasining farovonligi va mamlakat taraqqiyotiga xizmat qiladigan kuchdir.

Bugun biz “korxona – universitet – maqsadli kadr” tizimini joriy etish haqida gapiryapmiz. Aslida esa kattaroq jarayon boshlanmoqda: ta’lim bilan mehnat, bilim bilan hunar, talabalik bilan kasbiy hayot tobora uyg‘unlashmoqda. Endi asosiy vazifa – bu imkoniyatdan oqilona foydalanish. Har bir oliygoh “Biz tayyorlayotgan talaba jamiyatga qanday qiymat olib kiradi?”, har bir korxona esa “Men kelajak mutaxassisini tayyorlashga qanday hissa qo‘shaman?” degan savolni ham o‘z oldiga qo‘yishi zarur. Talaba uchun esa eng muhim savol – “Men diplom olganimda qanday kasb egasi bo‘laman?” Chunki kelajakni faqat bilimli yoshlar emas, bilimini kasbga, kasbini qiymatga, qiymatini esa taraqqiyotga aylantira oladigan avlod quradi.

Sherzod MUSTAFOQULOV,
Xalqaro Nordik universiteti rektori, professor.

Intilish

RAQAMLI IMKONIYATLAR MARKAZI

Farg‘ona shahrida umumiy qiymati 150 mlrd. so‘mlik loyiha doirasida qurib bitkazilgan “IT Park” majmuasida bir vaqtning o‘zida 200 nafargacha foydalanuvchi faoliyat olib borishi mumkin.



Majmuada yiliga 3 mingdan ziyod yoshlarni IT sohasiga o‘qitish, ularni amaliy loyihalarga jalb qilish hamda raqamli xizmatlar ko‘rsatish uchun zamonaviy sharoitlar muhayyo etilgan. Frilanser va dasturchilar uchun kovorking maydonlari, rezident kompaniyalar uchun to‘liq jihozlangan ofislar mavjud. Dunyoga mashhur “Apple” kompaniyasi bilan hamkorlikda tashkil etilgan “iOS Development Center”da yoshlarga mobil ilovalar va dasturiy mahsulotlar yaratish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalar xalqaro standartlar asosida beriladi.

– Biz jamoamiz bilan birga “3D” modellashtirish va “3D” printerlar yordamida eksportbop mahsulotlar ishlab chiqaramiz, – deydi “Muhandisona” MCHJ rahbari Jahongirmirzo Ibrohimov. – Ayni paytda “Engineericly” “YouTube” videoblogimizda qariyb 800 ming nafar obunachilar bor.

Hozirgi kunda “IT Park” majmuasida raqamli xizmatlar va dasturiy mahsulotlar eksportini kengaytirish hamda xorijiy kompaniyalar bilan hamkorlikni kuchaytirish borasida istiqbolli loyihalar ustida ish olib borilmoqda.

Botir MADIYOROV
(“Xalq so‘zi”).

IQTIDORLAR CHARXLANMOQDA

Buxoro shahridagi “Usta Davron” hunarmandchilik markazi keyingi paytda nafaqat xorijiy sayyohlar, balki mahalliy yoshlar bilan ham gavjum. Bu markaz rahbari, “Do‘stlik” ordeni sohibi Davron Toshevning shogirdlari safiga 123-maxsus maktab-internatining bir guruh o‘quvchilari qo‘shilgani bilan bog‘liq.



Gap shundaki, eshitishida nuqsoni bo‘lgan, ammo tasviriy san’atga ishtiyoqi baland 15 nafar o‘g‘il-qiz markazga muntazam qatnab, usta ko‘magida o‘z iqtidorini charxlamoqda.

– Bolalarda ishtiyoq kuchli, biz xalq amaliy san’atining o‘ziga xos sir-asrorlarini o‘rgatish orqali ularda kasb-hunarga qiziqishni yanada kuchaytirish harakatidamiz, – deydi D. Toshev. – Amaliy mashg‘ulotlar yoshlarni ijodiy fikrlashga undayapti, o‘zlariga ishonchni oshirishga xizmat qilyapti.

Aytish joizki, “Usta Davron” hunarmandchilik markazida miniatyura san’ati bilan bog‘liq jarayon klaster usulida yo‘lga qo‘yilgan. Markazga tegishli tutzor qadimiy usulda ipak qog‘ozi tayyorlash uchun xomashyo vazifasini o‘taydi. Qog‘ozga tushirilgan miniatyura asarlarining asosiy xaridori esa xorijiy mehmonlar ekani e’tiborga molik.

Istam IBROHIMOV
(“Xalq so‘zi”).

Toshkent shahridagi O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Yadro fizikasi institutida “Yadro fani va uning tatbiqi” mavzuida XII xalqaro konferensiya o‘z ishini boshladi.

TIL QADRI – EL QADRI, INSON QADRI

Mamlakatimizda tilimizning nufuzi va mavqeini oshirishga qaratilgan keng ko‘lamli ishlar haqida o‘ylasak, esga birinchi bo‘lib yaqin tarix keladi.

21-oktyabr – O‘zbek tili bayrami kuni

Ona tilimiz bir paytlar fidoyi farzandlari bilan birga otilgan, osilgan, surgun qilingan bo‘lsa, keyinchalik kuz sovuqlarida paxta tergani, muz sinfxonalarda qimtinib turgani, o‘z yurtida o‘sha zamonlar siyosatini ifodalovchi nomlar orasida o‘ksingani, katta minbarlarga yo‘l berilmasdan chetga surilgani, tazyiqlarni boshdan kechirgani, boshqacha aytganda, xalq boshiga nima kelgan bo‘lsa, birga kun kechirgani ayni haqiqat. O‘zbek tili davlat tashkilotlarining yozishmalari, yig‘inlar, katta tadbirlar, muloqotlarda ishtirok etolmas, uning joyi mehnatkash o‘zbek xalqi bilan birga edi – dalayu yaylovlarda, qishloqlarda, to‘y-marosimlarda odamlar bilan kun kechirardi.

Imperiya siyosatini ifodalovchi “Pobeda”, “Kommuna”, “Politotdel” kabilardan tortib, qizil inqilobning bir mahallar otda bo‘lgan, keyinchalik o‘zlarining davomchilari tomonidan go‘riga g‘isht qalangan namoyandalarining nomlarigacha: Kirov, Dzerjinskiy, Orjonikidze, Malenkov, Tuxachevskiy, Jukov, Budyonniy, Sverdlov nomidagi maktablar, bog‘chalar, kutubxonalar, ta’lim va fan dargohlari, zavod-fabrikalar… Eh-he, ona tilimizga majburan tiqishtirilgan so‘zlarning esa sanog‘i yo‘q edi. Yoshi ulug‘larimiz yaxshi eslashadi: Toshkent shahri tumanlari “Lenin”, “Frunze”, “Kirov”, “Kuybishev”, “Oktyabr” deb nomlangan. Haligacha katta avlod ayrim joylarni “Serovo”, “Gorchakov” deb eslaydi, nimaga bunaqa desangiz, biri – Toshkent shahrining birinchi komendanti, Iqon jangida o‘zini ko‘rsatgan zobit, ikkinchisi esa Turkiston o‘lkasida sovet hokimiyatini o‘rnatish uchun jonbozlik ko‘rsatgan jallod bo‘lib chiqadi.

Siyosatni qarang: kommunistik makonda yagona millat – sovet millati va yagona til bo‘ladi.

Fan, adabiyot va san’atimizni-ku, qo‘yavering: nari borsa, imperiya poytaxtigacha borardi, u yog‘iga chiqishga yo‘l qo‘yilmasdi. Harbiy sohani aytishga til bormaydi: millatning sara yigitlari imperiya qo‘shinlari safida kamsitilgani, zaxira qismlarga, qurilishlarga yuborilgani bor gap.

Uzoq o‘tmishmi desangiz, yo‘q, kechagina – mustaqilligimizdan bir necha yil oldingi gaplar bular.



Bugun ona tilimiz mamlakatimizdagi yuksalishlar va yangilanishlar bilan hamjihat. Vatan qaddini rostlagani sayin tilimiz ham qad rostladi.

Tilning nufuzi haqida gapirar ekanmiz, BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev jahonning eng nufuzli minbaridan turib ilk bor o‘zbek tilida nutq so‘zlaganini alohida iftixor bilan tilga olish joiz. Chunki bu har bir o‘zbekning qalbida alohida iz qoldirgan tarixiy voqealardan biri bo‘ldi. Dunyo davlatlari rahbarlari to‘plangan, ona sayyoradagi eng dolzarb masalalar muhokama qilinadigan ulkan minbarda o‘z tilimiz – o‘zbek tili yangradi.

Bu oddiy nutq emas, o‘zbek xalqining dunyoga eshittirilgan ovozi edi.

Alisher Navoiy hazratlari turkiy tilning badiiy imkoniyatlarini jahonga namoyon etgan bo‘lsa, oradan asrlar o‘tib, o‘zbek tilining zamonaviy davlat va xalqaro muloqot tili sifatidagi imkoniyatlari ham jahon minbarida namoyon bo‘ldi. Bu xayrli an’ana yana davom etib, O‘zbekiston Prezidenti Administratsiyasi rahbari Saida Mirziyoyeva 23-sentyabr kuni Nyu-Yorkda BMT Bosh Assambleyasining 81-sessiyasi umumiy munozaralarida O‘zbekiston nomidan nutq so‘zladi. Unda jahondagi murakkab vaziyat, tinchlik va ishonch, inson qadri, Markaziy Osiyodagi hamkorlik, sun’iy intellekt va texnologik taraqqiyot kabi masalalarga e’tibor qaratildi.

Tilimiz nafaqat o‘tmishning buyuk adabiy tili sifatida, balki bugungi dunyoning murakkab siyosiy, iqtisodiy, ilmiy va texnologik masalalari haqida fikr yurita oladigan zamonaviy til sifatida namoyon bo‘ldi.

> “Tilimiz nafaqat o‘tmishning buyuk adabiy tili sifatida, balki bugungi dunyoning murakkab siyosiy, iqtisodiy, ilmiy va texnologik masalalari haqida fikr yurita oladigan zamonaviy til sifatida namoyon bo‘ldi.”

Haqiqatan ham, keyingi o‘n yil mobaynida tilimizning nufuzi va mavqeini ko‘tarish borasida ko‘lamli ishlar amalga oshirildi.

Mamlakatdagi joy nomlarini davlat tiliga muvofiqlashtirish bo‘yicha ham ko‘plab chora-tadbirlar ko‘rildi. Aholi yashash joylari, temir yo‘l vokzallari va avtoshohbekatlar, gidroenergetika inshootlari – suv havzalari va suv omborlari, daryolar, irmoqlar, tog‘ cho‘qqilari, tepaliklar, jarlar va daralar, nasos hamda elektr stansiyalari kabi minglab geografik obyektlarning nomlari o‘rganildi. Xalqimiz ularni qadimdan yoki qurilgan paytdan boshlab qanday atagan bo‘lsa, o‘sha nomlar qaytarildi va hukumat qarori bilan tasdiqlandi.

Xalq orasida azaldan qo‘llanib kelgan, hududning tarixi, tabiati, etnografiyasi va mahalliy xotirasi bilan bog‘liq nomlarni tiklashga e’tibor qaratilayotgani bejiz emas, albatta. Zotan, joy nomi – xalq xotirasining bir parchasi. Unda ba’zan bir qishloqning tarixi, bir ulus xotirasi, bir daryoning qadimiy nomi, bir tog‘ haqidagi rivoyat, hatto xalqning tabiatga munosabati ham saqlanib qoladi. Biz ba’zan xaritadagi so‘zga oddiy nom sifatida qaraymiz. Aslida esa o‘sha nom ortida tarixlar yashaydi. Shu bois tarixiy nomlarni o‘rganish, ularni ilmiy asosda tiklash masalasi milliy o‘zlikni anglash jarayonining muhim qismi bo‘lib maydonga kirdi.

Asriy orzu ro‘yobga chiqdi: o‘zbek tili zamonaviy hayotning barcha sohalarida to‘laqonli ishlay oladigan davlat tili sifatida mustahkamlandi. Barcha bu yangilanishlar ortida mamlakat rahbariyatining qat’iy siyosiy irodasi, fidoyiligi turibdi, albatta.

Bugun biz “raqamli texnologiya”, “sun’iy intellekt”, “biotexnologiya”, “innovatsiya” kabi tushunchalar bilan yashayapmiz. Bu tushunchalarni ona tilimizda aniq, ravon va tushunarli ifodalab berish milliy zabonimizning zamonaviyligidan dalolat beradi.

Shu nuqtayi nazardan, so‘nggi yillarda sohalar bo‘yicha yangi atama va so‘zlarni qamrab olgan lug‘atlar yaratilib, nashr etilganini alohida ta’kidlash lozim. Bu ish tashqi tomondan qaraganda oddiy lug‘atchilikdek ko‘rinishi mumkin. Aslida esa uning zamirida juda katta ma’naviy va ilmiy vazifa mujassam. Chunki yangi tushunchaga o‘zbekcha so‘z topish tilning yangi voqelikni qabul qilishi, demakdir.

Bugun tibbiyot, huquq, iqtisodiyot, bank-moliya, axborot texnologiyalari, energetika, qishloq xo‘jaligi, muhandislik hamda boshqa sohalarda o‘zbek tilida aniq va bir xil ma’noda ishlatiladigan atamalarga ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Sohaviy lug‘atlar ana shu ehtiyojni qondirishga xizmat qiladi.

Tilning boyligi faqat so‘zlarining ko‘pligi bilan emas, u ifoda eta oladigan dunyosi bilan ham o‘lchanadi. Yana bir ulkan ish – o‘zbek tilining milliy korpusini yaratish ishlari keng ko‘lamda davom etmoqda.

Tilning yuksalishi – millat yuksalishi, deydilar.

O‘zbek tilida buyuk adabiy an’ana bor. Mahmud Koshg‘ariydan Alisher Navoiygacha, Boburdan Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Oybek va bugungi avlod ijodkorlarigacha bo‘lgan ulkan ma’naviy xazinalar aynan tilimiz orqali bir-biri bilan bog‘lanib turadi. Biz ana shu merosning davomchilarimiz.

Shu o‘rinda bir fikrni ta’kidlash joiz: farmonlar, qarorlar, dasturlar til uchun mustahkam huquqiy va tashkiliy zamin yaratadi. Ammo uning haqiqiy qudrati odamlarning kundalik nutqida, kitoblarda, maktablarda, universitetlarda, ilmiy maqolalarda, teatr va kino asarlarida, internet va raqamli muhitda namoyon bo‘ladi.

Shuning uchun bugungi e’tibordan quvonish bilan birga, har birimiz zimmamizdagi mas’uliyatni ham his etishimiz kerak. Bizgacha kelgan tilni qanday qabul qilgan bo‘lsak, uni kelajak avlodga shundayligicha emas, yanada boyitib, sayqallab, zamonga moslab topshirishimiz lozim.

Bu tilning davlat siyosati darajasida e’zoz topayotgani katta ne’mat.

Ona tilimiz – bizning kechagi xotiramizgina emas, ertangi kunimiz hamdir. Uning buguni qanchalik mustahkam bo‘lsa, kelajagi ham shunchalik porloq bo‘ladi.

Shu bois bugun qalbimizdan chiqadigan eng samimiy so‘zlar shunday: ona tilimizga e’tibor uchun, qadri yuksalayotgani, kelajagi haqida katta maqsadlar qo‘yilayotgani uchun shukrona izhor etgan holda, uning ravnaqiga har birimiz o‘z hissamizni qo‘shishimiz kerak, albatta.

Isajon SULTON,
O‘zbekiston xalq yozuvchisi.

TURIZM KO‘CHASI:

BETAKROR QIYOFA, O‘ZGACHA RUH

Andijon shahrining doimo gavjum Amir Temur shohko‘chasida 7/24 tartibida faoliyat yuritadigan ko‘cha foydalanishga topshirildi. Temir yo‘l vokzali, madaniyat va istirohat bog‘i hamda mehmonxonalar joylashgan ushbu manzilda turizm ko‘chasining tashkil etilgani ayni muddao bo‘ldi. Zero, Andijonga kelgan sayyoh va mehmonlarning shahar bilan ilk tanishuvi ko‘p hollarda aynan shu maskandan boshlanadi.

Qulaylik



– Gastronomik turizmni rivojlantirishga hissa qo‘shish maqsadida mazkur ko‘chada kafe va tamaddixonalar tashkil etdik, – deydi tadbirkor Baxtiyorjon Qodirjonov. – Bu borada jahonning yirik brendlarini Andijonga olib kelishga alohida e’tibor qaratmoqdamiz. Ayniqsa, Osiyo va Yevropa taomlariga bo‘lgan talab kundan-kunga ortyapti. Ushbu ko‘chaning ishga tushirilishi mehmonlar va aholi uchun ko‘plab imkoniyatlar eshigini ochdi. Chunki bu yer faqat ko‘ngilochar maskan emas, yangi ish o‘rinlari yaratiladigan markazga ham aylanmoqda.

Umumiy qiymati 30 mlrd. so‘m bo‘lgan loyiha doirasida 0,5 kilometrlik ko‘chada keng piyodalar va velosiped yo‘laklari, selfi-zonalar, ochiq havodagi sport maydonchalari, 7 qavatli avtomatlashtirilgan avtoturargoh barpo etildi. Bir qancha restoran va kafe brendlari faoliyat yuritmoqda. Yil yakuniga qadar 50 dan ortiq savdo va xizmat ko‘rsatish shoxobchalarini ishga tushirish rejalashtirilgan.

Kelgusida bu yerdagi shoxobchalarning yillik savdo aylanmasini 20,4 mlrd. so‘mga, byudjet tushumlarini esa 2,4 mlrd. so‘mga yetkazish ko‘zda tutilgan. Loyiha amalga to‘liq oshirilgach bir paytning o‘zida 5-6 ming kishiga xizmat ko‘rsatish uchun qulay sharoit vujudga keladi.

Saminjon HUSANOV
(“Xalq so‘zi”).

REKLAMA

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

2027-YIL UCHUN DOKTORANTURA, TAYANCH DOKTORANTURA VA STAJYOR-TADQIQOTCHILIKKA QABUL E’LON QILADI

№	Ixtisoslik shifri va nomi	DSc	PhD	Stajyor-tadqi-qotchi
1.	08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi		4	
2.	08.00.02 – Makroiqtisodiyot	1	3	
3.	08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti		3	
4.	08.00.04 – Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti		2	
5.	08.00.05 – Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti		1	
6.	08.00.06 – Ekonometrika va statistika		4	
7.	08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit	2	7	
8.	08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti	2	7	
9.	08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit	1	4	
10.	08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti		4	
11.	08.00.11 – Marketing	1	4	
12.	08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot	1	4	
13.	08.00.13 – Menejment	1	4	
14.	08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari	1	3	
15.	08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti	1	4	
16.	08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya	1	5	
17.	08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati	1	4	
18.	09.00.04 – Ijtimoiy falsafa		4	
19.	13.00.02 – Ta’lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi		2	
20.	13.00.07 – Ta’limda menejment		2	
21.	05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta’minoti		5	
22.	05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt		5	
23.	05.01.13 – Axborotni qayta ishlashning kvant usullari (texnika fanlari)	5		
	JAMI:	13	90	

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi “Oliy ta’limdan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 304-qarorga muvofiq tayanch doktorantura, doktorantura, stajyor-tadqiqotchilikka quyidagi hujjatlar topshirilishi so‘raladi:

Ustuvor bo‘lmagan ixtisosliklar uchun tayanch doktoranturaga (PhD) talabgorlar qisqacha biografik ma’lumotnoma, mehnat daftarchasining belgilangan tartibda tasdiqlangan nusxasi (ishlayotgan talabgorlar uchun agar yagona elektron tizimda integratsiya bo‘lmagan bo‘lsa), oliy ta’lim muassasasi magistratura va bakalavr diplomlari hamda ularning ilovalari, nashr etilgan ilmiy ishlar va ularning havolalari (tayanch doktoranturaga kirish uchun talabgorlarda tanlangan dissertatsiya tadqiqoti asosini tashkil qilishi mumkin bo‘lgan ilmiy jurnallarda kamida 1 ta ilmiy maqola va 2 tezis) hamda ularning nusxalari, xorijiy tilni bilishni tasdiqlovchi milliy yoki xalqaro tan olingan sertifikat;

Ustuvor ixtisosliklar uchun tayanch doktoranturaga (PhD) talabgorlar qisqacha biografik ma’lumotnoma, mehnat daftarchasining belgilangan tartibda tasdiqlangan nusxasi (ishlayotgan talabgorlar uchun agar yagona elektron tizimda integratsiya bo‘lmagan bo‘lsa), oliy ta’lim muassasasi magistratura va bakalavr diplomlari hamda ularning ilovalari, nashr etilgan ilmiy ishlar va ularning havolalari (tayanch doktoranturaga kirish uchun talabgorlarda tanlangan dissertatsiya tadqiqoti asosini tashkil qilishi mumkin bo‘lgan ilmiy jurnallarda kamida 1 ta ilmiy maqola va 2 tezis) va ularning nusxalari, xorijiy tilni bilishni tasdiqlovchi milliy yoki xalqaro tan olingan sertifikat, tayyorlangan loyiha taqdimoti;

Doktoranturaga (DSc) talabgorlar qisqacha biografik ma’lumotnoma, mehnat daftarchasining belgilangan tartibda tasdiqlangan nusxasi (ishlayotgan talabgorlar uchun agar yagona elektron tizimda integratsiya bo‘lmagan bo‘lsa), oliy ma’lumot, fan nomzodi yoki falsafa doktori (PhD) yoxud xorijiy davlatlarda unga tenglashtirilgan ilmiy darajaga ega bo‘lganligi to‘g‘risidagi diplom nusxasi, nashr etilgan ilmiy ishlar va ularning havolalari (dissertatsiya tadqiqoti asosini tashkil qilishi mumkin bo‘lgan ilmiy jurnallarda chop etilgan kamida 3 ta ilmiy maqola hamda 2 ta tezis) hamda ularning nusxalari, tadqiqot mavzusi bo‘yicha ilmiy ma’ruza va fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan doktorlik dissertatsiyasi rejasining mufassal loyihasi (asosnoma), xorijiy tilni bilishni tasdiqlovchi milliy yoki xalqaro tan olingan sertifikat;

Stajyor-tadqiqotchilikka talabgorlar qisqacha biografik ma’lumotnoma, mehnat daftarchasining belgilangan tartibda tasdiqlangan nusxasi (ishlayotgan talabgorlar uchun), oliy ta’lim muassasasi magistratura diplomi va uning ilovasi, nashr etilgan ilmiy ishlar va ularning havolalari (tayanch doktoranturaga kirish uchun talabgorlarda tanlangan dissertatsiya tadqiqoti asosini tashkil qilishi mumkin bo‘lgan ilmiy jurnallarda kamida 1 ta ilmiy maqola va 2 tezis) va ularning nusxalari, dissertatsiya rejasining mufassal loyihasi (asosnoma) ni topshiradilar.

Hujjatlar https://daraja.ilmiy.uz// yagona elektron tizimi orqali yuboriladi va asl nusxalari yig‘ma jild shaklida universitetning Doktorantura bo‘limida qabul qilinadi.

Hujjatlar 2026-yil 15-oktyabrgacha bo‘lgan davrda qabul qilinadi.

Telefon: 71-239-01-43, Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi, 49-uy, Madaniyat saroyi, 2-qavat. doctorant.tsue.uz https://t.me/doctorant_tsue

18 – 24-oktyabr kunlari Kunchiqar yurtda bo‘lib o‘tadigan V Paraosiyo o‘yinlarida O‘zbekiston sport delegatsiyasi ham ishtirok etadi.

Xalq so‘zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi – 429. Buyurtma G-1042. 17 780 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma’lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e’lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2010-8788

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas’ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir N. Ostonov.
Musahhih Sh. Marshabboyev.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko’chasi, 41. O‘zA yakuni – 01.53 Topshirildi – 02.20 1 2 3 4 5 6